

O'smir qachon maktabdan uzoqlashadi?

Bola o'zini yolg'iz his qila boshlasa, bo'sh vaqtini behuda o'tkazsa yoki haddan tashqari katta bosim ostida bo'lsa, atrofdagilardan uzoqlashadi. Bu esa balog'at ostonasidagi yoshning nojo'ya xatti-harakatlar sodir etishiga sabab bo'ladi.

2-bet

Olimpiadaga qatnashmasaydi...

Mutasaddilardan o'qituvchilarga ham, o'quvchilarga ham qulaylik yaratish maqsadida fan olimpiadalarini issiq kunlarda tashkil etish, baxtsiz hodisa va ko'ngilsizliklar yuzaga kelmasligi uchun olimpiada kunlari qatnashchilarga yetarli sharoitlar yaratilishini so'raymiz.

4-bet

Dunyoviylik — dahriylik, diniylik — mutaassiblik degani emas

Dunyoviylik — bu dahriylik degani emas. Din va diniy e'tiqod butunlay rad etiladigan hayot qanday g'ayriinsoniy ko'rinishga ega ekanini biz yaqin tariximiz misolida yaxshi bilamiz.

7-bet

Kuch — bilim va tafakkurda

Marifat

1931-yildan chiqib boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2021-yil 27-yanvar, chorshanba № 4 (9329)

Xalq ziyolilari gazetasi


Eng birinchi ustoz onadir!



5-bet

Muammo va taklif

Darsliklar nashri va "O'qituvchi" nashriyoti taqdiri



Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev olib borayotgan ichki va tashqi siyosat xalqimiz hamda jahon jamoatchiligining jiddiy e'tibori, chuqur hurmatiga sabab bo'lmoqda. Chet ellarda bu hurmat va e'tirofga guvoh bo'lib, shu yurt farzandi bo'lganimdan faxrlanaman.

Bugungi kunda tashqi siyosatda jahon hamjamiyati bilan teng qadam tashlash, rivojlangan davlatlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlik qilish, O'zbekistonga dunyoni va dunyoga O'zbekiston eshiklarini ochib, ichki siyosatning turli sohalarda dadil islohotlarni amalga oshirish, ayniqsa, korrupsiyaga qarshi ayovsiz kurashni barcha sohalarda tizimli ravishda olib borish mamlakat Prezidenti va uning timsolida davlatimizning obro'yini kun sayin oshirmoqda. Ana shu obro' tufayli jahonning rivojlangan mamlakatlari O'zbekistonga jiddiy e'tibor qaratmoqda va siyosiy-iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirmoqda. Yev-

ropa Ittifoqi mamlakatlari Markaziy Osiyo hududida faqat O'zbekiston bilan hamkorlikni davom ettiramiz demogda. Buning yorqin isboti sifatida aytish mumkinki, Prezidentimizning 2019-yil yanvar oyida Germaniyaga rasmiy safaridan boshlab bu mamlakatning O'zbekistonga kiritayotgan investitsiyalari hajmi 10 milliard dollardan oshdi. Ana shunday xalqaro obro'yimiz oshib borayotgan bir paytda turli sohalarda, ayniqsa, ta'lim va matbaachilik yo'nalishlarida bir qator kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

3-bet



O'quvchilarning miyasiga singib ketgan: faqat uchta fanni o'qish kerak, tamom. Natijada ona tilini bilgan o'quvchi fizikani bilmaydi, fizikani bilgan tarixni, tarixni bilgan matematikadan bexabar. Hatto o'quvchilarda oltin medal olishga qiziqish ham yo'q. O'sha o'zlariga kerakli bo'lgan kursga boradi. Kerak bo'lsa, repetitorning hurmati baland, maktab o'qituvchilarini esa nazarga ham ilmay qo'yishdi. Sababi oddiy: repetitor OTM-ga kiritadi. O'qituvchilar o'quvchilarni har kuni maktabga chaqirib, ularning oltindan qimmat vaqtini "o'g'irlaydi". O'quvchilarda shunday qarash shakllanib ulgurdi.

Sarvinoz SUNNATOVA

Yanvar oyidan boshlab maktablarga shoir, yozuvchi, jurnalistlar ishga qabul qilinishi va o'quvchilarimiz bilan ijodiy mashg'ulotlar olib borishi haqida aytilgan edi. Mazkur yangilik amaliyotga joriy etildimi? Oy ham yakunlanib bormoqda, qaysi maktablarga ijodkorlar ishga kelishdi? Hozir ular qanday ishlarni amalga oshirmoqdalar? Meni shu masala juda qiziqtiyapti. Bizning maktabda jimlik. Agar tumanimizga yaqinroq joylarda ishlashayotgan bo'lsa, tajriba orttirmoqchiman. Bolalar bilan yana qanday ishlashim kerakligini o'rganardim.

Dilfuza SUVONOVA

Madaniyat vaziri bog'chalarda har kuni maqom va milliy kuylar qo'yish taklifi bilan chiqibdi. Yaxshi taklif. Maqom — ruh ozig'i. Shunday kuylar boriki, har qanday insonning qalb tubiga yetib boradi, orom olishga, tin olishga chorlaydi. Bu taklif maktablarda ham joriy etilsa yaxshi bo'lardi. O'quvchilarda milliy kuylarga hurmat shakllanardi. Xalq og'zaki ijodiga nazar tashlaydigan bo'lsak, yuksak mazmun-mohiyatga ega bo'lgan durdona kuy-qo'shiqlarimiz juda ko'p. Ana shunday asarlarni o'quvchilarga mag'zini chaqib bergan holda taqdim etsak, ularni oldi-qochdi narsalardan chekintirgan bo'larmidik. Yoshlarni tobora o'z domiga tortib borayotgan internetdan sal bo'lsada uzoqlashtirish choralarini ko'masak bo'lmaydi.

Jamila QAYUMOVA

Shapaloq

Kuydi-pishdi gaplar

Eshak bir kunda o'lmaydi. Ikki kunga egasi bermaydi.
Chala-chulpa bo'lsa ham ishning bitgani muhim.
Besh kunlik umrimizni shoshib-pishib yashayapmiz.

Bezovta shaharning tungi shovqinlari quloqni qomatga keltirsa-da, bamayli-xotir uyquni uraman. Ko'zlarimni uqalab soatga qararasam 7:57. Mening yana bir kuydi-pishdi kunim boshlanadi. Shoshib kiyinaman, oynaga qarayman, sochimni tarayman. Halloslaganча bekatga yetib borishim bilan bir qishloq odamni orqalagan belangi avtobus hay-haylashimga qaramay o'tib ketadi. Keyingisi sermalanib qo'zg'aladi...

Xuddi ustoz yarim soat emas, 29 daqiqa kechiksam, kechirib yuboradiganday, universitet eshigidan shoshilib kiraman. O'tkazgichning temir qo'llari yo'limni to'sadi. Menga qo'shib butun urug'-aymog'imni taniydigan qorovul guvohnoma so'raydi. Jamiyatimizda kasbini sidiqdildan bajaradigan yagona odam shu bo'lsa kerak.

Mavzuning qiziq joyini bo'lib qo'ymay deb darixonaga quloq solaman. Xayriyat, hali "kulminatsiya" oldinda ekan. Ustoz endigina bolaligi, qo'shnisining qopag'on itidan qanday qochib qutulgan haqida gapiryapti. Qaysidir poliklinikada bosh vrach bo'lib ishlaydigan opasiga hali navbat yetmabdi.

Eshakdan kirishim bilan qayta-qayta tinglangan "ma'ruza"dan bezor bo'lib, daqiqa sanayotgan kursdoshlarimga na-

jot farishtasi bo'lib ko'rinaman. Darsga kechikkanim, sochimning o'sgani, o'z-o'zidan g'oyib bo'lgan daftar... hammasini qo'shib hisoblaganda darsning qolgan qismini tanbeh bilan o'tkazishga yetadi. Oz-moz ortib qolsa, o'rmini nasihat-u, xuddi hozir ijobat bo'ladigandek chin yurakdan aytilgan duolar bilan to'ldiramiz. "Dars" tugashi bilan piri komil ustoz kafedraga shoshib jo'naydi. Axir muvaffaqiyatli himoya qilingan PhDdan so'ng, DScni ham tezroq olish kerak. "Mashhur shoir — Maddohiyning she'rlari orqali g'o'zaning yangi navlarini yaratish", "Qora xo'tiklar dumidagi oq tukdan unumli foydalanish", "Tahoratning Orol fojeasiga ta'siri" kabi turli sohalarni qamrab olgan olamshumul maqolalarini ozroq kengaytirsa bas, ilmiy daraja oladi. Eng muhimi, oylik ko'payadi. Faqat tezlashtirish kerak. Bo'lmasa, biror chaqqonrog'i tesha tegmagan bunday mavzularni o'g'irlashi mumkin.

Darslar yakunlangach men ham shoshib ishga jo'nayman. Ildam odimlashimga xalal berayotgan bir o'lcham kichik botinkaga qo'shilib svetoforlar g'ashimga tegadi. Yashil chiroq yonishi bilan piyodalar yo'lagiga o'zinni uraman. Yarmiga yetar-yetmasdan bir "kat-



takon"ning qora mashinasi qizil chiroq yonib turganiga qaramay, shuvillab o'tib ketadi. Majaqlanishdan asrab qolgan santimetrlarga rahmat aytib yo'limda davom etaman. Qizil chiroqni kesib o'tgan "kattakon"ni qoralashga shoshilmang. Har ishning bir sababi bor. Ehtimol, u yo'l harakati qoidalarini buzgan haydovchilarga nisbatan jarimani oshirish haqida qaror tayyorlashga shoshayotgandir.

Vaqtdan unumli foydalanish maqsadida yo'l-yo'lakay atrofdagi o'zgarishlardan hayratlanishga harakat qilaman.

Kecha poydevori qurilayotgan ko'p qavatli imorat bugun bitibdi. Qoyil! Shoshayotganimga qaramay, bu natijaga qanday erishganini ustalardan so'ragim keldi. Hazil yo'chin "Kattalar bitgani hisob, deydi. Mana shoshib-pishib tugatdik, lekin qulab tushsa biz javob bermaymiz", dedi ustalar. Jizzaxdagiga o'xshab hash-pash deguncha ustinga dumalab tushsa-ya! Bu xatarli yo'ldan yurmaslikka ahd qilib, xiyobon tomonga burildim.

Har tomonda baland-baland daraxtlar. Bor budidan ayrilgan bo'lsa-da, viqor bilan chayqalib turibdi. Ularning ostiga hali chirib ulgurmagani xazonlar to'shalgan. Birdan biologiya o'qituvchimizning gaplari esimga tushdi: "barglar chirib, tuproqqa qorishadi, ular oziqlanib yangi nihollar o'sib chiqadi".

Qani, biz ham shu yaproqlarga o'xshab barchamiz chirib bitsag-u (bundan ortiq yana qanday bo'lishi mumkin!), bizdan kuch olib, navqiron bir avlod o'sib chiqsa. Afsuski, biz odammiz...

Ishxonaga keldim. Mana, siz bilan gurunglashayapmiz. Hurmatli mushtariylar, suzhatimiz sal jiddiylashatg'on ko'rinadi. Och qornim tinch qulog'im. Yaxshisi, bu galgi "shapaloq"ni uch nuqta bilan tugataqolay. Davomini o'zingizga havola qilaman. Asriy dardlaringizni to'kib soling. Yengil tortasiz.

Ustiga-ustak shoshib turibman. Yana gaplashamiz...

Ilmi TOLIB

Sinf rahbari minbari

O'smir qachon maktabdan uzoqlashadi?

Pedagogik faoliyatimni boshlaganimga 30 yil bo'ldi. Ilk bor sinfga biriktirilganimda yelkamda nafaqat ta'lim, balki tarbiya berishdek nihoyatda mas'uliyatli vazifa borligini his qilganman.

Sinf rahbaridan onadek mehribon, kezi kelganda otadek qattiqqo'l, bolalarga do'st-o'rtoq bo'la olishdek chinakam mahorat va ulkan sabr-bardosh talab etiladi. Ayniqsa, bolalarning o'smirlik davri yaqinlashgani sayin ular bilan munosabat yanada taranglashishi, ba'zan mo'hir pedagogning ham ancha ter to'kishiga sabab bo'lishi turgan gap. Negaki, bu davr o'z nomi bilan o'ta nozik palla, bolalikdan ulg'ayish sari ildamlaydigan o'tish davridir.

Sinf rahbari dastavval bajarishi lozim bo'lgan vazifa har bir o'quvchining fe'l-atvorini chuqur o'rganish holda unga ruhan yaqin bo'la olish. Shuningdek, u sinfdagi muvozanatning bexato ishlaydigan tarozisi ham bo'lmog'i dardkor. Boisi, ayni o'smirlik chog'i bolalar o'rtasida o'zaro kelishmovchilik, arziymas gap-so'zlar ortidan xafalik, tushkun kayfiyat tez-tez kuzatiladi. Sinf rahbari esa munosabatlar

zanjirining mo'rtlashuvi va uzilishining oldini olishi, o'quvchilarni bir-biriga mehr-oqibatli bo'lishga o'rgata bilishi muhim. Buni qanday amalga oshirsa bo'ladi?

Kichik sayohatlar, ya'ni shaharning tarixiy qadamjolariga, xiyobon va muzeylarga ekskursiya tashkilotirish bolalarning dunyoqarashiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu o'rinda xoh maktabda, xoh san'at saroylarida o'tkazilsin, madaniy tadbirlar, zakavat o'yinlarini tashkil etish dardkor. Bundan tashqari, ota-onalar bilan kunora muloqot orqali o'quvchilardagi individual o'zgarishlarni tahlil qilib borish lozim. Hatto ta'tilda ham muloqotni muntazam yo'lga qo'yish kerak. O'smirlik chog'ida bolani hadeb tergash kattalar yo'l qo'yadigan xatolardan biri hisoblanadi. Unutmaslik kerak, agar o'smir o'qituvchisidan ko'p dakkli eshitaversa maktabdan, ota-ona turkiyaversa, oila-

dan uzoqlashadi. Biroq uni o'z holicha qo'yib qo'yish ham noto'g'ri. Eng muqobil yo'l o'smir bilan do'stona munosabat o'rnatishdir. Tez-tez yakka holdagi suhbatlar yaxshi samara berishini tajribamda ko'p kuzatganman. Bola o'zini yolg'iz his qila boshlarsa, bo'sh vaqtini behuda o'tkazsa yoki haddan tashqari katta bosim ostida bo'lsa, atrof-dagilardan uzoqlashadi. Bu esa balog'at ostonasidagi yoshning nojo'ya xatti-harakatlar sodir etishiga sabab bo'ladi.

Sinf rahbari o'ta sinchkovlik bilan guruhdagi har bir bolaning yurish-turishi, gap-so'zlari va kiyinishi ortidan undagi o'zgarishlarni tezda bilishi dardkor. Oddiy misol: o'tish davriga qadar bo'lgan kezlarda yaxshi o'zlashtiruvchi, a'lochi o'quvchi bu paytga kelib o'z-o'zidan sust-kashlikka beriladi. Yoki aksincha, ko'p gapiradigan, sho'x-xandon bola qo'qqisidan kamgap, dilgir bo'lib qoladi. Bundan bir necha yil oldin shu kabi holatni kuzatdim. Namunali o'quvchilardan biri 5-sinfdan 9-sinf gacha a'lo baholarga o'qib, fanlarning barini yaxshi o'zlashtirib ketadigan edi. Yuqori sinfga o'tdi-

yu, xulqida o'zgarish bo'ldi, baholari pasaydi. Avvaliga u bilan yakkama-yakka gaplashib ko'rdim, natija bo'lmadi. So'ng o'ziga bildirmay holda onasi bilan suhbatlashdim. Ona ham boladagi salbiy o'zgarishni tasdiqladi va bu borada biror yechim uchun mening huzurimga kelmoqchi ekanini aytdi. Shunda o'quvchimning yaqin o'rtoqlarini alohida suhbatga chorladim. Ma'lum bo'lishicha, u o'zidan to'rt-besh yosh katta bezori yigitlar guruhiga qo'shilib qolibdi. Uni yo'ldan qaytarish haqida o'ylay boshladim. Bir kuni sinfdoshlari oldida o'quvchimga mas'uliyatli topshiriq — senariy tuzib, maktabda katta tadbir o'tkazib berishini, unga ko'mak-dosh bo'lishimni bildirdim. Bu orada haftada bir marta sinfga badiiy asarlar muhokamasini tashkil qildim. Darsdan so'ng muloqotni ko'paytirdim. Ancha vaqt tadbirga tayyorgarlik bilan o'tdi. O'quvchim o'ziga bildirilgan ishonchni ortig'i bilan bardi: sinfmiz o'tkazgan tadbir maktab jamoasiga juda manzur bo'ldi. Shu-shu qanday tadbir o'tkazilsa, albatta o'sha o'quvchinni chaqiradigan bo'lishdi. U

vaqtini behuda o'tkazish o'rniaga yana o'zlashtirishini tiklab oldi. O'sha o'quvchim hozir viloyatdagi yirik korxonalarining birida yetakchi mutaxassis bo'lib ishlaydi. Ba'zan kelib, o'z minnatdorligini izhor qilganida allanechuk bo'lib ketaman, o'zimdanda tanlagan yo'limdan ko'nglim ko'tariladi. Aslida o'qituvchi uchun eng keragi ham shu: o'quvchi-bolalarining kamolini ko'rish.

Demak, o'quvchilarning o'tish davri o'zgarishlari vaqtida sinf rahbarining yuklamasi ortadi, vazifasi ko'payadi. Mabodo o'qituvchi beparvolikka berilsa, o'quvchini o'z farzandidek qabul qilolmasa, butun jamiyatga talofat keltirgan bilan tengdir. Axir ayni o'smirlik chog'i bola kasb tanlaydi, o'zi egallamoqchi bo'lgan hunarga ko'nglida tamal toshi qo'yadi. Ulg'ayish sari tetapoya bo'layotgan o'quvchining iqtidorini anglab, uni katta yo'lga qadar kuzatib qo'yish — ham yelkadagi burch, ham savobli ish sanaladi.

Gulbahor SULAYMONOVA,
Samarqand shahridagi
10-maktab o'qituvchisi

Darsliklar nashri va "O'qituvchi" nashriyoti taqdiri

(Davomi. Boshi 1-betda.)



Ma'lumki, mamlakat g'ildiragini mutaxassis aylantiradi. Mutaxassisni esa oliy ta'lim va o'rta maxsus ta'lim muassasalari tayyorlaydi. Mutaxassislar tayyorlovchi kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlari uchun kerakli o'quv adabiyotlari va ularning taqdiri bilan bog'liq nashriyotlar faoliyatidagi ahvol nazarimda jiddiy islohotga muhtoj. Mutaxassislikdan dars beruvchi o'qituvchilar ta'limni eng avval o'quv adabiyotlari — darslik, o'quv va uslubiy qo'llanma hamda turli maxsus adabiyotlar yordamida amalga oshiradi. Yaqin besh-o'n yildan buyon ana shu o'quv adabiyotlari nashri tender asosida amalga oshirilyapti. Tenderda aniq o'quv fanlari va sohalar bo'yicha maxsus tahririyati yo'q nashriyotlar "yutyapti". Vaholanki, har bir darslik — bu didaktik hujjat, uni shu sohani o'qitish bo'yicha didaktik va metodik tajriba otingirgan mutaxassislar yaratishi kerak. Buning uchun, masalan, matematika fanini bilishning o'zi kifoya emas, matematikani o'qitish metodikasi nazariyasi va amaliyotini yaxshi egallagan, o'quvchi fiziologiyasi va psixologiyasini yaxshi bilgan o'qituvchi bo'lish kerak. Ayni kunda maxsus tahririyati bo'lmagan xususiy va davlat nashriyotlari darsliklarni "chopillatib" chop etib yotibdi. Shu faktning o'ziyoq tender tanlovlarining xolis o'tayotganiga nisbatan shubha uyg'otadi. Aksariyat fanlar bo'yicha chiqarilgan darsliklar nafaqat imlo xatolari, balki son-sanoqsiz metodik va didaktik xatolarga to'la. Mualliflar va ularning jamoalari shakllanishida, darsliklar ekspertizasida ham salbiy holatlar (guruhbozlik, mahalliychilik va h.k.) ko'rinadi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi qoshidagi muvofiqlashtiruvchi kengash va Xalq ta'limi vazirligi qoshidagi Respublika ta'lim markazi tavsiyasi bilan chop etilgan aksariyat o'quv adabiyotlarida son-sanoqsiz kechirib bo'lmamas xatolar ko'zga tashlanadi. Masalan, nemis adabiyoti tarixi darsligida fransuz adabiyoti mutaxassis mas'ul muharrirlik qilgan. Darslik mualliflarining aksariyati esa Toshkentda ishlayotganlar... Viloyatlarda ham qobiliyatli, kompetentli, mualliflikka loyiq mutaxassis o'qituvchilar yo'qmi?

Bundan xulosa shuki, darsliklarni faqat va albatta umumta'lim fanlari bo'yicha tashkil qilingan maxsus tahririyatlar bor nashriyotgina chiqarishi mumkin. Tenderni ham ana shu nashriyot doirasidagina qilish kerak. Masalan, 1-sinf "Nemis tili" darsligini bir necha mualliflar jamoasi alohida yaratsin. Maxsus metodik va didaktik komissiyadan qaysi jamoa (darsligi) g'olib chiqsa, o'sha darslik chop etilsin. Turli badiiy, publitsistik va boshqa nodidaktik nashrlarni xohlagan boshqa nashriyot chiqarversin... Bir paytlar mamlakatda shunday 10 tacha maxsus fanlar bo'yicha tahririyatlari bo'lgan "O'qituvchi" nashriyoti bor edi. Men o'sha nashriyotda ishlaganman. Biroq noishiriklikdan xabari yo'q turli katta-kichik rahbarlarning nohud faoliyati natijasida bu nashriyotning bugungi kunda bittagina

umumiy tahririyati, to'rt-beshtagina muharriri bor. Endi bu nashriyot ham davlat tasarrufidan chiqib, xususiylatirishga mahkum etilgan. Agar bu nashriyotni ham biror nomutaxassis tadbirkor xususiylashtirib olsa bormi, u qanday darslik chiqara boshlashi mumkinligi tasavvurga sig'maydi, chunki uni darslikning sifati emas, eng avval bu nashrdan unga qancha foyda kelishi qiziqtiradi.

Darsliklarni nashr qilish ayni paytda xuddi shu biznesga aylanib bormoqda. Hozir maxsus mutaxassislar bo'lmagan, asosiy faoliyati matbaachilikdan iborat "KolorPAK"dek xususiy korxonalar kimlardir o'rta solib darsliklarni nashr qilishni qo'lga olyapti. Farzandlarimiz o'qiydigan darsliklarni, metodik qo'llanmalarni tayyorlash biznesga aylanmasligi lozim, ular davlat nazoratida bo'lishi zarur. Rivojlangan Amerika, Germaniya, Yaponiya, Rossiya, Xitoy va boshqa davlatlarda darsliklar tegishli davlat organlarining nazoratida, kuchli ekspertlar xulosasi olinib, keyin nashr qilinadi. Darsliklarning mazmuni, ularning sifati bozorga tashlanmaydi, maxsus tajribaga ega mutaxassislar bo'lgan nashriyotlarga darslik nashri bilan shug'ullanadi.

Darsliklarning sifati bo'yicha O'zbekiston Oliy Majlisi deputatlari, jamoatchilik tomonidan qattiq e'tirozlar bildirilmoqda. Bu o'rinda gap idishning zo'r va qimmatbaholigida emas, avvalo, uning ichidagi mahsulot sifati haqida bormoqda. Ammo mazmun bilan matbaa ijrosining farqiga bormaydigan soha rahbarlari e'tirozlarning mohiyatini tushunib yetmay, darsliklarning matbaa (tipografik) ijrosiga yopishib olishgan. Aslida sifati deganda darsliklarning matbaa ijrosi emas, uning mazmuni, metodikasi, didaktikasi tushunilishi kerak.

Darslik va o'quv adabiyotlarining mazmuni va ekspertizasi, ularni davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlariga mos ravishda tayyorlash bilan ayni paytda XTV qoshidagi Respublika ta'lim markazi va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi qoshidagi Muvofiqlashtirish kengashi shug'ullanadi. Biroq bu markaz va kengash qoshida tuzilgan bo'limlarda ba'zi fanlar bo'yicha tuzilgan o'quv-metodik komissiyalarga ham metodika va dida-

ktikani yaxshi biladigan mutaxassislarini jalb qilish lozim. Asosiy didaktik va metodik talablarga amal qilinmaganligi uchun birgina 1-sinf "Nemis tili" darsligining dastlabki 2013-yilgi varianti nashri 130 ta metodik, didaktik va lisoniy hamda imlo xatolari bilan chop etilgan edi. Nemis tili bakalavriati uchun yozilgan "Nemis adabiyoti tarixi" darsligida esa minglab qo'pol xatolarga yo'l qo'yilgan. Bu kabi holat boshqa yuqori sinflar uchun yozilgan darsliklarda ham, boshqa fan darsliklarida ham ko'plab uchramoqda. Darsliklar sifati haqida gapirganda ularni tayyorlovchi mualliflarning mehnatlarini munosib rag'batlantirish masalasi ham hamon oqsamoqda. Hozirgi bozor iqtisodiyoti davrida esa bu juda dolzarb masala hisoblanadi. Muallif va ekspertlarga, darsliklarni nashrga tayyorlovchi muharrirlariga qoniqarli mehnat haqqi to'lanmas ekan, darsliklarning talab darajasidagi sifati haqida gapirish qiyin. Chunki darslik yaratish va uni ekspertizadan o'tkazish, ularni nashrga tayyorlash — bu ertak yozish, hikoya to'qish emas. Bu o'ta mashaqqatli va mas'uliyatli ish. Bugungi bozor iqtisodiyoti davrida bu masalaga panja orasidan qarab bo'lmaydi. Ayrim sabablarga ko'ra mualliflarning darsliklari o'z taqdirini kutib, yillab chang bosib yotgani ham ayni haqiqat. Zamon esa tez o'zgaryapti, darsliklarning mazmuni esa kun sayin eskirib bormoqda. Va natijada oldin yozilgan darsliklarni qaytadan yozishga to'g'ri kelmoqda. Bu esa mualliflarning hafsalasini pir qilmoqda. Bechora bilimli domla yaxshi dars o'tsinmi, darsiga tayyorlansinmi va ayni bir paytda yana zamonaviy darslik ham yaratsinmi? Shu sababdan darslik mualliflariga maxsus shart-sharoit yaratish ham muhim masaladir.

Nashriyotlar orasida O'zbekiston Respublikasi iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlovchi Mirzo Ulubek nomli jamg'arma qoshida faoliyat yuritayotgan "Ta'lim" nashriyoti ham bor. Bu nashriyotga hurmatim baland. Chunki u yerda o'quv va ilmiy adabiyotlarga jiddiy talablar asosida yondashiladi. Darslik va qo'llanmalar yuqori didaktik talablar asosida chop etilmoqda.

Mavjud holatdan kelib chiqadigan xulosa va takliflarim:

1. O'quv adabiyotlari nashrida tobora ko'zga tashlanib borayotgan salbiy holatlarni bartaraf qilish lozim. Aks holda mamlakatni chalasavod mutaxassislar bilan ta'minlayveramiz. Yaqin va olisdagi mamlakatlar mutaxassislari bilan raqobatbardosh ham bo'lolmaymiz.

2. Vazirliklar ishtirokida yagona TA'LIM MARKAZI tuzish va uning qoshida umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalari uchun o'quv adabiyotlari yaratish bo'yicha asosiy fanlar uchun maxsus bo'lim(tahririyat va komissiya)lar tashkil qilish.

3. O'quv adabiyotlari nashrini yagona davlat ta'lim siyosati asosida nashrga tayyorlash va chop etish maqsadida hozirgi "O'qituvchi" va "Ta'lim" nashriyotlari bazasida yangi mustaqil davlat didaktik nashriyoti tuzish kerak.

4. Yangi O'zbekistonning yangi nashriyoti faoliyatini zarur professional muharrirlar bilan ta'minlash va ularga qoniqarli ish haqi to'lanishini kafolatlash lozim.

Nazarimda, ana shunday nashriyotgina davlat ta'lim siyosatini, davlat ta'lim standartlari kafolatini ta'minlovchi tashkilot bo'la oladi. Ana shu yangi nashriyot qoshida 30 yil avvalgi "O'qituvchi" nashriyoti misolida umumta'lim maktablarida o'qitilayotgan asosiy o'quv predmetlari (fanlar) bo'yicha alohida maxsus tahririyatlar tuzish, ularga yoshidan qat'i nazar, mamlakatimizdagi pedagog olimlar, tajribali metodist mutaxassislarini jalb qilish, ularning faoliyatini moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirish, muqobil tarzda yangi darsliklar avlodini yaratish va chop etish zarur. Bu masalada rivojlangan mamlakatlar, ayniqsa, Germaniyaning didaktik nashriyotlari va butun dunyoga namuna bo'layotgan, o'quv adabiyotlari yaratish bo'yicha eng ilg'or dastur va andozalar asosida ishlayotgan "CORNELSEN" nashriyoti bilan yaqindan hamkorlik qilish orqali mamlakatimiz kelajagini yaratuvchi yosh avlodga eng zamonaviy o'quv adabiyotlarini yetkazib berish mumkin. Aytgan holatlarni bartaraf etish qiyin emas, albatta. Aks holda, xalq ta'limi va oliy ta'limimizda yaxshi qarorlar yomon ijro etilishi, yaxshi islohotlar o'ylangan-day natija bermasligi va ko'zlangan maqsadga olib bormasligi mumkin.

Biz professor-o'qituvchilar Prezidentimizning "O'zbekistonda adabiyot va san'at, madaniyat, ommaviy axborot vositalari, ma'naviyat va ma'rifat biznesga aylanmasligi shart va biz bunga hech qachon yo'l qo'yamaymiz!" degan so'zlariga amal qilishimiz lozim. Maqsadimiz — Yangi O'zbekiston yigit-qiz kadrlariga xalqaro standartlar asosida yaratilgan yangi o'quv adabiyotlari yordamida zamonaviy ta'lim va tarbiya berish...

Xurram RAHIMOV,
Germaniyadagi Germaniya — O'zbekiston
Ilmiy jamiyati raisi,
O'zbekiston nemis tili o'qituvchilari
assotsiatsiyasi raisi,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi,
professor

4 O'qituvchilar orasida eng ko'p noroziliklarga sabab bo'ladigan holat bu olimpiadaning qahraton qish kunlariga to'g'ri kelishidir.

Xotira

Olimpiadaga qatnashmasaydi...

Saharda xavotir bilan uyg'ongan Marjona onasiga ko'rgan tushini aytib berdi. Negadir ko'ngli g'ashlanib, shu olimpiadaga qatnashmasam nima bo'larkan deb o'yladi. Ammo onasidan dakki eshitdi. "O'qituvchining farzandi bo'laturib sen shunday qilsang, boshqalardan nima kutish mumkin. Fan o'qituvchining ham, direktor ham gap eshitishi tayin-ku. Har xil xayollarni miyangdan chiqar, undan ko'ra 1-o'rinni olib, hammamizning yuzimizni yorug' qilishni o'yla". Onasining gapidan ko'ngli taskin topgan Marjona yaxshi kayfiyatda yo'lga otlangan edi...

Inson ertangi kuni, hatto umrining keyingi soniyalarida uni nima kutayotganini bilmas ekan.

Agar bilganida Marjona ham bugun oilasi davrasida bo'lmasmidi, sinfdoshlari qatori o'ynab-kulmasmidi.

Agar onasining gapiga kirmaganda...

Agar a'lo baholarga o'qimaganida...

Agar olimpiadaga qatnashmaganda...

Atigi 17 bahorni ko'rgan murg'ak jon baxtsiz hodisa qurboniga aylanmas edi!

Qishning qorong'i, ayozli kunlarining birida Nurota tumanida istiqomat qilayotgan ikki oilaning boshiga og'ir musibat tushdi. Bundan butun tuman, viloyat, balki respublikadagi ta'lim sohasi vakillari g'amga botdi. Navoiy shahrida bo'lib o'tishi rejalashtirilgan fan olimpiadasining viloyat bosqichiga Nurotadan to'rt yo'lovchini olib ketayotgan yengil avtomashina "Qoraqarg'a" dovonidan o'tayotganda haydovchining ehtiyotsizligi sabab yo'ldan chiqib ketadi. Oqibatda 42-maktabning

kimyo fani o'qituvchisi, 28 yoshli Zohidjon Shokirov va 2-maktabning 11-sinf o'quvchisi Marjona Hazratqulova yorug' olamdan ko'z yumadi.

Ana'anaviy tarzda maktab o'quvchilari o'rtasida fan olimpiadalari o'tkazib kelimoqda. Bundan ko'zlangan maqsad o'quvchilarning bilimi, iqtidori, ijodiy qobiliyatini tekshirish, o'zlari tanlagan fanlarga qiziqishini oshirishdir. Fan olimpiadasining ta'limda ahamiyati yuqori ekani, o'qituvchiga ham, o'quvchiga qator afzallik va imtiyozlari borligini bilamiz. Ammo ushbu tanlov har doim og'riqli mavzu bo'lgan. Hakamlarning adolatsizligi, o'rinlarning sotilishi, "katta"larning farzandlari g'olib bo'lishi, qatnashuvchilar uchun hech qanday sharoit yaratilmasligi va boshqa holatlar doim o'qituvchilarni ham, o'quvchilarni ham qiynagan. O'qituvchilar orasida eng ko'p noroziliklarga sabab bo'ladigan yana bir holat bu olimpiadaning qahraton qish kunlariga to'g'ri kelishidir. O'lis hududlarda istiqomat qiladiganlar shu bo'yicha doim qiyinchiliklarga duch keladi. O'qituv-

chining sovuqda ikki kunlab o'quvchisi bilan sarson yurishi, tanlov tugaguncha tik oyoqda tashqarida kutishi, qatnashchilar uchun ham yengilliklar yaratilmasligi doim ishtirokchilarni qiynagan.

Butun O'zbekistonni larzaga solgan ikki yosh insonning vafoti voqeasi ham aynan mana shunday qish tongi qorong'isida, tabiatning injiqliklarini hisobga olmaslik oqibatida yuzaga kelgan desak adashmagan bo'lamiz.

— Navoiyning ob-havosi boshqa viloyatlardan farq qiladi. Yozimiz issiq, qishimiz sovuq. Qahraton kunlarda uzoqroq hududga chiqmaslikka harakat qilamiz, — deydi Nurota tuamanidagi 42-maktab o'qituvchisi Zuhra Qosimova (ism-familiyasi o'zgartirildi). — Bu yilgi fan olimpiadasi respublikamizda kuzatilgan anomol sovuq kunlarga to'g'ri keldi. Mudhish voqea sodir bo'lgan kuni izg'irin, tuman, qolaversa, yo'llar muzlagan edi. Halokatda kimdir yoki ob-havo sabab deya olmaymiz. Avvalo, Ollohning irodasi, lekin qalbimizni o'rtaydigan vajlar yo'q emas. Albatta, ob-havo, uzoq hududlardan keladiganlar uchun vaqt masalasi ham hisobga olinishi kerak edi. O'sha kuni tanlov 8:00 da boshlanishi rejalashtirilgan. Mashinada bo'lgan yana bir o'qituvchi hushiga kelgach, 7:30 da avtohalokat sodir bo'lgani, ammo 8:10 largacha hech qanday yordam bo'lmaganini bayon qiladi. Bilihimizcha, mashina pastlikka qulagan, tuman bo'lgani uchun boshqa yo'lovchi ulovlar buni payqamagan. Balki birinchi

yordam ko'rsatilganda ikki sonning hayoti saqlab qolingan bo'larmidi?!

Qalbni tinmaydigan armonlar ko'pchilikka tinchlik bermayotgani aniq. Ular ishlagan, o'qigan maktab o'qituvchilari, o'quvchilari, ularni tanigan bilgan har bir insonning yuragida og'ir dard qoldi, alam qoldi. Boyaqish onayzorlarning fig'oni falaknida zir titratdi. Yaqinda turmush o'rtog'idan ayrilgan, farzandlari uchun yashab kelayotgan, qizini avaylab-asrab o'stirgan mushtipar onaning faryodiga dosh berish qiyin.

Turmush qurganiga hali ko'p bo'lmagan, endigina 25 bahorni ko'rgan, 2 yashar qizaloqning onasi, og'iroyoq ma'suma ayolning ohu-dodiga chidab bo'lmaydi...

Holat yuzasidan Nurota tuman xalq ta'limi bo'limiga murojaat qilganimizda har ikki oilaga ham qonunchilikda belgilangan tartibda ma'naviy, moddiy yordam ko'rsatilishini ta'kidlashdi. Halokatga uchragan mashinada omon qolgan yana bir o'qituvchiga "Ta'lim fidoyisi" ko'krak nishoni berilibdi. Ha, ta'limga fidoyilik, ishiga sidqidildan yondashish, doimiy faollik o'qituvchilarning hech qachon tark etmasin. Bu kabi yomon hodisalar hech kimning boshiga tushmasin. Xalq ta'limi mutasaddilaridan o'qituvchilarga ham, o'quvchilarga ham qulaylik yaratish maqsadida fan olimpiadalarini issiq kunlarda tashkil etish, baxtsiz hodisa va ko'ngilsizliklar yuzaga kelmasligi uchun olimpiada kunlari qatnashchilarga yetarli sharoitlar yaratilishini so'raymiz.

Niginabonu SHUKUROVA

Kitob — ong va qalb ehtiyoji

Kitob — fikrlash quroli, xazinalar kaliti, tafakkur manbayi bo'lgani uchun ham xalqimiz uni nonday aziz, mo'tabar va muqaddas hisoblaydi. Kitobni chin dildan qadrlagan Abu Ali ibn Sino og'ir betob bo'lgan Buxoro hukmdori Nuh ibn Mansurni davolagach, evaziga oltin-u kumushlar to'la sandiqni emas, balki saroy kutubxonasidan foydalanish imkoniyatini qolga kiritishni afzal ko'rgan edi.

Buyuk rus shoiri A.S.Pushkin duelda yaralanib, vafot etar chog'ida unga "do'stlaringiz bilan vidolashing", deyishadi. Pushkin xonaning bir burchagidagi kitob javoniga termulib, "xayr, mening do'stlarim", deya jon bergan ekan.

Kitobni mutolaa qilish jarayonining o'zidayoq insonning ongi va dunyoqarashi shakllanib boradi. Uni takror va takror o'qish davomida esa yangidan yangi ufqlar kashf etiladi, har gal uni qayta mutolaa qilgan inson undan o'zgacha taassurotlar oladi. Ma'lumotlarga qaraganda, Forobiy Arastuning "Jon haqida", deb nomlangan asariga o'z qo'li bilan "Men bu kitobni 200 marta o'qidim", deb yozib qo'ygan ekan. Kitob ong va qalb ehtiyojini qondiruvchi omil sifatida inson ruhini tarbiyalay-

di, shaxsni shakllantiradi. Kitob odamdan mutolaada nafaqat ko'z va aql, shuningdek, ko'ngil ham birdek ishtirok etishini talab qiladi. Kitob o'qishdan maqsad aql-tafakkur bilan uni mantiqiy muhokama etishgina emas, balki chin yurakdan zavqlanish, ta'sirlanish, o'zlikni, haqiqatni izlab topish hamdir. Faylasuf Yan Mindan do'sti so'rabdi: "Kitob o'qigandan so'ng hech narsa yodda qolmasa nima qilmoq kerak?". U "Uni tushunmoq kerak, yodlash shart emas. Tushunmoq zaruriyati ham ikkinchi darajali narsa. Eng avvalo, kitobning asosiy mohiyatini anglamoq joiz" deb javob beribdi.

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'at-it turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Nosiruddin Rabg'uziy-

ning "Qissasi Rabg'uziy", Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburning qator asarlarida kitobxonlikka oid qimmatli ma'lumotlar berilgan. Kitobxonlik adabiyotshunoslik va ta'lim-tarbiyaning muhtarak hamda muhim sohasi sifatida, shubhasiz, chuqur izlanishlarni taqozo etadi. Uning rivojini adabiyotning taraqqiyoti bilan bog'lab o'rganish maqsadga muvofiqdir. Shu ma'noda bugungi ilm-fan misli ko'rilmagan darajada rivoj topgan davrda kitob o'qish va unga munosabat bir qadar susaygandek. Chunki yoshlar ko'proq kino, video, televideniye, kompyuterga berilib ketgan. Cheksiz bilimlar mohiyati, asriy sir-sinoatlar tilsimi hozirgi davrga kelib bashariyatga oshkor bo'lmoqda. Qadimda kitoblarni xattotlar ming bir mashaqqat bilan ko'chirishgan bo'lsa, bugungi kunda texnika yutuqlari tufayli ular millionlab nusxalarda chop etilib, butun dunyo bo'yab tarqatilmog'chi. Achinarlisi shundaki, bugun kitob o'qish uchun vaqt sarf-



lashga hojat yo'qdek. Biroq tezkor zamonda hayot kechirayotgan odamzod shunchalik betoqat bo'lib qolganki, uning bir muddat xotirjam tin olishga imkoniyati, eng yomoni, bunga xohishi yo'qdek ko'rinadi. Insonning ongi fikrlar, ma'lumotlarga to'la, ammo u fikrlashga layoqatsiz bo'lib bormoqda. Uning diqqati bir joyda jam emas, shoshganidan shoshadiki, kitoblar turfa xil va son jihatdan ko'p bo'lgani bilan uni mutolaa qilish, teran fikrlashga fursati yo'q. Kitobning o'zini emas, uning sujeti, mohiyati to'g'risidagi qisqagina ma'lumotlarni o'qish, aniqlash, ko'z yuritish afzal bo'lib qoldi.

Kitobning hayotdagi o'rini axborot, turli sohalarga oid kerak va nokerak ma'lumotlar egallab oldi, natijada insonlar tinimsiz axborot qabul qilish-

ga moslashib qolmoqda. Axborot oqimi shu qadar shiddatliki, uni qayta ishlashga, fikr yuritishga deyarli ulgurib bo'lmaydi. Bu borada ma'rifat fidoyilaridan birining kuyunchaklik bilan aytgan gapini eslaylik: "Bilim deb hikmatdan, axborot deb ma'rifatdan ayrildik!".

Aslida har bir axborot manbayi, kino yoki videofilmi olamizmi, badiiy asar o'rini bosolmaydi. Masalan, "O'tkan kunlar" romani asosida ishlangan film qanchalik mahorat bilan suratga olingan bo'lmasin, kitobning ta'sirini, jozibasini berolmaydi.

Biz ruhiyatimiz, o'z olamimiz, qalbimiz bilan qayta til topishmoqchi ekanmiz, kitob mutolaasiga qaytishimiz lozim. Bugungi kunda ham yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda kitobdan-da qudratliroq vosita yo'q. Zero, kitob bizning ma'naviy qu-yoshimiz va tafakkurimizning yuksak xazinasidir.

Yusuf MUHAMMADIYEV,
Samarqand viloyati xalq ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi bolalar kutubxonasi direktori

Onalar maktabi

Eng birinchi ustoz onadir!

Har bir insonning taqdiri, hayotdagi muvaffaqiyatlarida onaning beqiyos o'ri bor. Zero, farzand homila davridayoq onaning ruhiy va jismoniy holatidan ta'sirlanadi. Ona ilmga chanchoq, bilimdon bo'lsa, farzandlari ham oqil va dono bo'ladi. Insonning birinchi ustozlari bu onadir. Eng sof va pokiza tuyg'ular, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlar birinchi galda oila bag'rida, ona tarbiyasi bilan shakllanadi. Ammo bu ustozlikni bugunning onalari qanday uddalamoqda?

Ijtimoiy tarmoqlar hayotimizda katta o'rin tutadigan va hatto o'z ta'sirini ko'rsatadigan davrda yashaymiz. Facebook, Telegram, Instagram va hatto Tik-Tok tarmoqlarida ham ko'plab bekalarni uchratamiz. Aksariyat ayollar bu tarmoqlarda doimiy onlayn holatida bo'ladi. Bundan bilish mumkinki, ularning har kuni tarmoqlardagi suhbatlarni o'qish, muloqot qilish, video, audio, fotosuratlariga munosabat bildirish va bu maydonda faol bo'lish bilan o'tadi. Shu o'rinda savol tug'iladi. Ular ayol, ona, uy bekasi-ku. Doimiy onlayn bo'lgan akkaunt egasi bo'lgan bu ayollar farzand tarbiyasi, onalik vazifalari, o'zi ustida va bolalari bilan qachon shug'ullanishadi? Kitob o'qishdimi, bolalariga ham vaqt topishdimi? Albatta, farzandining kelajagiga katta e'tibor berib, ularning ta'lim-tarbiyasi va qobiliyatini o'stirishga intilayotgan ayollar ham talaygina, ammo ta'kidlaganimizdek, ijtimoiy tarmoqlardagi 10–20 mingdan ziyod ayollar(onalar)ni jamlagan guruhlardagi mavzular darajasini kuzatib xatvoriga tushasan kishi.

Bir kishi donishmandning oldiga borib: "Hazrat, mening bir o'g'lim va bir qizim bor. Ikkalasini o'qitishga qurbim yetmaydi, faqat bittasini o'qitishga imkonim bor, qaysi birini o'qitay?" deb so'rabdi. Donishmand unga: "Qizingni o'qit, chunki u kelajakda farzand tarbiya qiladi. Agar o'g'lingni o'qitsang, bir kishini o'qitgan bo'lasan, ammo qizingni o'qitsang, butun jamiyatni o'qitgan bo'lasan", deb javob bergan ekan.

Bugun yurtimizda ayollarning jamiyatda tutgan o'rini oshirish, qizlar ta'limiga e'tibor qaratishtigacha katta e'tibor qaratiyapti. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2020-yili O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqida buyuk davlat arbobi Indira Gandining "Bitta qiz bolani o'qitsangiz, butun oilani o'qitgan bo'lasiz", degan so'zlarini xotirlagan holda qishloq joylarda yashayotgan, kam ta'minlangan oilalar qizlarining oliy o'quv yurtlari kunduzgi bo'limida davlat granti asosida o'qishlari uchun qo'shimcha o'rinlar ajratilganini ta'kidlagan edi. Kam ta'minlangan oilalar qizlari oliy o'quv yurtlarining kunduzgi bo'limida davlat granti asosida o'qishlari uchun o'tgan yili 940 ta o'rin ajratildi. Prezident joriy yil boshida Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida bu kvotalar soni ikki barobarga oshirilishi hamda a'lo baholarga o'qiyotgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj qizlar uchun maxsus stipendiyalar joriy etilishini ma'lum qildi. "O'ylaymanki, qizlarimiz uchun yaratilgan bunday qo'shimcha imkoniyat yana yuzlab oilalarga bilim va ma'rifat nurini olib kiradi. Bu, o'z navbatida, yosh qizlarimizning kelajakda jamiyat uchun munosib kasb egalari bo'lib kamol topishiga puxta zamin yaratadi. Biz bu boradagi

ishlarimiz ko'lamini bundan keyin ham yanada ko'paytirib boramiz", degan edi Prezident.

Shunday insonlarni uchratamizki, ishdagi, shaxsiy hayotdagi barcha muvaffaqiyatlarida onasining bergan tarbiyasi, turkisi, ta'limi poydevor bo'lgan va ular hayotning har bir jabhasida onasi bergan o'g'itlarni eslab, qayta-qayta uning mohiyatini tushunadilar. Ba'zan bu o'g'itlarning ma'nosini yillar davomida hayotning o'zi asta-sekinlik bilan bizga tahlil qilib beradi. "Ha, onam shunday der edi, bu bilan nima demochi bo'lganini endi tushundim!" deymiz. Farzand tarbiyasi, hayot saboqlari ularni shunday bilimdonga, faylasufga aylantirib qo'yadi.

Elektr chiroqni kashf qilgan Tomas Edisonning onasi qanchalik oqila bo'lganini va uning aql bilan amalga oshirgan birgina harakati farzandining taqdirini ijobiy tomonga o'zgartirib yuborgan barcha onalarga o'rnam bo'lishi kerak. Bu hikoyani qancha eshitganimiz sari inson yana xotirlagisi kelaveradi. Keling, oqila ayol haqidagi hikoyani yana bir bor yodga olamiz.

Tomas Edison bolaligida bir kuni maktabdan kelib onasiga ustozining maktubini tutqazadi va "Buni o'qituvchimiz sizga berib yubordi", deydi. Ona maktubni o'qib yig'lab yuboradi va xatni ovoz chiqarib o'qiy boshlaydi: "O'g'lingiz o'ta iqtidorli, maktab unga va uning qobiliyatiga torlik qiladi. Shuning uchun uyda ta'lim ola qolsin!". Shunday qilib, Edison o'z uyida onasidan ta'lim-tarbiya ola boshladi. Oradan yillar o'tdi. U o'z davridan o'zib ketib, ixtirochi bo'lib yetishdi. Vaqti-soati yetib onasi vafot etdi. Onasining vafotidan keyin olim uning narsalari turadigan javondan maktub topib oldi. Ancha yil o'tgan bo'lsa-da, maktubni darrov tanidi. Bu — o'sha, maktabdagi ustoz yozib bergan maktub edi. Ammo maktubda mutlaqo boshqacha gaplar yozilgandi: "O'g'lingiz o'ta beaql va qobiliyatsiz bola. Ertadan boshlab maktabga kelmasin!". Edison ancha vaqtgacha yig'isini to'xtata olmadi. So'ng kundalik daftariga quyidagi so'zlarni bitib qo'ydi: "Edison haqiqatan kaltafahm bola edi, biroq onasining go'zal tarbiyasi sababli iste'do sohibiga aylandi".

Bu hikoya insonga zukko Ona tarbiyasining o'zi buyuklikka yo'llanma ekanini uqtirgandek bo'ladi. Edisonning onasi kabi oqila ayollar bugungi zamonamizda, biz yashayotgan jamiyatda ham talaygina. Samarqandlik Tamara Isoqova ko'p yillar Payariq tumandagi 74-maktabda ona tili va adabiyot fanidan muallimlik qilgan. Adabiyotga mehr qo'ygan, o'zi ham she'rilar bitib turadigan bu ayolni ko'pchilik ziyoli, bilimli ustoz va farzandlari kamolini ko'rayotgan ona timsolida yaxshi taniydi.

— Har bir inson muvaffaqiyatlari or-

tida onaning mehnati-yu zahmati yotadi, — deydi Tamara Isoqova. — Onam hozirgi kunda 92 yoshni qarshilagan bo'lishiga qaramay, xotirasi juda kuchli. Yoshligida ham kuchli xotirasi bilan otam o'qib bergan barcha badiiy asarlarning mayda detalrigacha eslab qolardi. Onam o'zi 5-sinf gacha tahsil olgan. Otam esa adabiyot muallimi bo'lgan. Otam doim hammamizga ovoz chiqarib kitob o'qib berardi. Buning ta'sirida onam ham badiiy adabiyotga qiziq boshlagan. Biror ish bilan shug'ullanayotib onam bizga badiiy asarlarni erak qilib aytib berardi. Qaysidir harakatlarimiz ma'qul kelmasa yoki yaxshi ishimizdan mamnun bo'lsa romanlardagi ijobiy va salbiy obrazlarga qiyos qilib, "sen hozir shunga o'xshab ketding" derdi. Keyin biz qiziqib o'sha kitobni topib o'qishga kirishardik. Doim beshik tagiga biror kitobni qo'yib qo'yardi. "Ukangni tebratib o'tir" deb bizni uyga kirgizib yuborsa, biz beshik tebratish payti uning tagidagi kitobni olib o'qib o'tirardik. Bolaning ilmga qiziqishi ko'p holatlarda onaning ko'p kitob o'qishiga bog'liq. 92 yoshli onamning hozir ham eng qimmatli xazinasi — kitob to'la tugunchagi bor. Hali ham bu xazinaning usti ochiq, mutolaani va boshqalarni ham bundan bahramand etishni to'xtatmagan. Mening adabiyotga qiziqishim ham shu zayl boshlangan. Ko'p yillar maktabda ona tili va adabiyotdan dars berdim. O'zim ham bir narsalar qoralab, ijod qildim.

Tamara aya onasi ta'sirida adabiyot muallimi bo'lgan bo'lsa, to'ng'ich o'g'li Vohid Luqmonov ham onasi ta'sirida ijod olamiga kirib keldi. Tamara onaning farzandlarini kitob o'qish uchun majburlashiga hojat bo'lmagan. Onasining qo'lidagi doim kitob rangan bolalarning mutolaaga qiziqishi va mehri tabiiy ravishda o'sib boraverar ekan.

— Faqat kenja o'g'lim biroq o'yinqaroq edi, — deb xotirlaydi Tamara Isoqova. — Shuning uchun mol boqishga dalaga ketsa ham, behubog'likni o'ziga asami bog'lab jo'natardim. Qaytib kelganida "qayeriga kelding, qani gapirib ber-chi", deb so'radim. Bir yoki ikki bet o'qisa ham mayli, foydasi bor derdim. Shu farzandimni kitob o'qitishga sal qiyналgan bo'lsam-da, ammo nazorat, ko'rgan choralarim samara berdi. Baribir o'qishga qiziqib ketdi. Keyin mening qistovlarimsiz ham kitob o'qiydigan bo'ldi.

Har bir insonning birinchi ustozlari uning onasi bo'lsa, aksariyat ijodkor insonlarning dastlabki ijod mahsulini baholovchi inson ham bo'ladir. Hozir O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining "Madaniyat va ma'rifat" telekanali direktori, jurnalist, shoir Vohid Luqmonni ham ijod olamiga yetaklagan inson Tamara ona Isoqovadir.

— Har qanday ijodkorning birinchi urinishlari "xom"roq bo'ladi. Uni "pishitish", takomillashtirish birinchi ustozga bog'liq. Ham adabiyot muallimasi, ham ona sifatida ijodkor o'g'linga qo'lindan kelgan barcha yordamni qildim, — deydi Tamara ona. — Ijodkor odamning qalbi nozik bo'ladi. Unga maslahat yoki yordam berish ham noziklik, ehtiyotkorlik ta-



lab qiladi. Ustiga-ustak ta'lim-tarbiyaning o'zi o'ta ehtiyotkorlik bilan yondashiladigan jarayon. Bu shunday jarayonki, unda hech qachon uzilmaydigan izchillik bo'lishi kerak. Agar siz, farzandingiz o'qishlarini bugun nazorat qilib, ertaga qaramasangiz, uning ertasiga yana "kundaligingini olib kel, bir ko'rib qo'yay" desangiz, bu harakatingizdan foyda yo'q. Nazorat izchil bo'lishi kerak. Va nazorat qiluvchi, ya'ni ona ham boladan talab qilayotgan narsasiga javob bera oladigan darajada ilmi bo'lishi shart. Shu bois, kelinlarning ham ilm-ma'rifatlari, oliy ma'lumotli bo'lishlari tarafdorim. Ikki kelinimni o'rta ma'lumotli holatida kelin qilib olgach, o'zim oliy o'quv yurtida o'qitdim. Uchinchi kelinim ham oliy ta'limdagi tahsilni kelinlik uyida davom ettirdi. Nabiralarning ziyoli inson bo'lishlari uchun ularning onalari ham o'qimishli, ma'lumotga ega ayol bo'lishlari shart deb hisoblaganman.

Tamara onaning 5 nafar farzandi bugun jamiyatda o'z o'miga ega, elga halol xizmat qilib kelayotgan insonlardan. Ikki qizi maktab o'qituvchisi, o'g'illari esa jurnalist, shifokor, pedagogik kasblarini egallab, oilada va hayotda ko'p muvaffaqiyatlarga erishib kelishmoqda.

Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida shunday deydi:

"Emdi ochiq ma'lum bo'ldiki, tarbiyani tug'ulgan kundan boshlamak, vujudimizni quvvatlandurmak, fikrimizni nurlandurmak, axloqimizni go'zallandurmak, zehnimizni ravshanlandurmak lozim ekan. "Tarbiyani kimlar qilar? Qayda qilinur?" degan savol keladur. Bu savolga, "birinchi uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidir. Ikkinchi maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir", — deb javob bersak, bir kishi deyarli, "qaysi onalarni ayursiz, bilimsiz, boshi paqmoq, qo'li to'qmoq onalarni? O'zlarida yo'q tarbiyani qaydan olib berurlar", der. Mana, bu so'z kishining yuragini ezar, bag'rini yondurur. Otasiga nima dersiz, desak, qaysi ota? To'ychi, uloqchi, bazmchi, do'mbirachi, karnaychi, sumaychi, ilm qadri bilimgan, ilm uchun bir pulni ko'zlarini qiyngan, zamondan xabarsiz otalarni ayursizmi? Avval o'zlarini o'qitmak, tarbiya qilmak lozimdur", — der. Mana bu so'zni eshitgach, umid qo'llari qo'ltug'ga urilur".

Bu afsuslar, bir asr avval bitilganiga qaramay, hamon dolzarb. Agar har bir insonning bir oqila onasi, har bir oilaning bir dono ayoli bo'lsa, demakki xalqimiz ma'naviyati, yurtimiz istiqboli yuksalaveradi. Farzandi istiqbol uchun mehnat-u zahmatdan qochmaydigan, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatib, eng birinchi ustozlikni yuksak darajada ado etishga qodir onalar ko'payversin.

Zilola MADATOVA,
"Ma'rifat" muxbiri

Sinab ko'ring

“Qaynoq kartoshkalar”

Stol ustiga kartoshka ko'rinishida tarqatmalarning orqasida turli so'zlar aralash tarzda yozib qo'yiladi. O'yin davomida xattaxta oldiga to'rt guruhdan o'quvchilar taklif etiladi. Birinchi o'quvchi shu so'zlar ichidan ot so'z turkumiga oid so'zlarni, ikkinchi o'quvchi sifat so'z turkumiga oid so'zlarni, uchinchi o'quvchi son, to'rtinchi o'quvchi fe'l so'z turkumiga oid so'zlarni ajratib yozishlari talab qilinadi. Kartoshkalar “qaynoq” bo'lgani uchun bolalarning qo'llarida ko'p qolib ketmasligi kerak. Tez va birinchi tugatgan o'quvchi g'olib sanaladi.

“Tuzlama tayyorla” o'yini. Bunda o'quvchilar savollarga javob berib, pomidor va bodringlar (pomidor 5 ball, bodring 4 ball) bildiradi)ni banka ko'rinishidagi ko'rgazma-ga joylab borishadi. Pomidor, bodring ko'rinishidagi tarqatmalar orqasiga savollar yoki test savollari yozilgan bo'ladi. Qiyinroq savollarga javob bergan, ya'ni pomidorlarni bankalariga ko'proq joylay olgan guruh g'olib bo'ladi.

“She'rni tikla” o'yinida o'qish kitobida berilgan biror-bir she'r asos qilib olinadi. O'quvchilar berilgan vaqt ichida she'rni qayta tiklash orqali o'z ziyoraliklarini namoyish etishi kerak. Buning uchun sinf 3 guruhga bo'linadi. Guruhlarga bir xil she'r matni ichidan har bir satri ajratib kesib olingan holda taqdim etiladi. O'quvchilar misralarning o'rmini to'g'ri tanlashi kerak.

“Do'stingga yetkaz” o'yinida o'qish darslarida mavzuni mustahkamlashda foydalaniladi. Mavzuni o'qituvchi bir o'quvchiga boshidan o'qishni aytadi. O'quvchi 2-3 ta gapni o'qigach, biror do'stining ismini aytadi, shu

o'quvchi mavzuning davomini kelib qolgan joyidan o'qiydi. Bu o'quvchi ham o'zgina o'qib keyingi do'stining ismini aytadi. O'yin shu tariqa davom etadi. Bunda o'quvchilar mavzuni diqqat bilan kuzatadilar, darsda e'tiborsiz, loqayd o'tirmaydilar.

“Noto'g'ri jumla” o'yinidan esa ona tili darslarida foydalanish samarali. O'qituvchi mavzudagi mashq yoki biror matni slaydda namoyish qiladi. Bunda ayrim so'zlar, masalan, shahar nomlari, kishilar ismi kichik harf bilan (toshkent, salima), ba'zi so'zlar imlosi (kitop, baxor kabi) xato yozilgan bo'ladi. O'quvchilar shu xato jumlani topib aytishlari kerak.

Darslarni bir-biriga o'xshamagan holda tashkil etish va o'qitish zamon talabi. Shuning uchun ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish, ta'lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylandi.

Xonzoda JUMAYEVA,
Vobkent tumanidagi
39-maktabning boshlang'ich
sinf o'qituvchisi

Boshlang'ich sinfda har bir o'quvchiga alohida yondashuv talab etiladi. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilari turli fiziologik xususiyatga ega bo'lgani uchun ularni rag'batlantirish, erkalash, erkin qo'yish kabi usullar qo'llaniladi. Dars mavzusi ham qiziqarli o'yinlar asosida tushuntiriladi.

“Sehrli saroy”ga tashrif

Masalan, “Sehrli saroy” o'yinida to'g'ri va xatosiz hisoblashga o'rgatish uchun didaktik topshiriqlar beriladi. O'yin topshirig'i quyidagicha: maktab ilm olish dargohi ekani haqida tushuncha berish.

O'yin bayoni: Bor ekanda, yo'q ekan, qadim zamonda bir ona bo'lgan ekan. Uning uquvsiz bir o'g'li bor ekan. O'g'li yetti yoshga to'lganda onasi uni bir saroyga boshlab boribdi. U oddiy emas, balki sehrli saroy ekan. Saroyning katta eshiklari bor ekan. Uning derazalari ko'p, xonalari yorug', yo'laklari uzun ekan. Shunda onasi o'g'liga: “Bolaginam, men seni mana shu saroyga olib keldim. Sen bu saroyda 11 yil yashaysan. Undan keyin esa boshqa eshikdan chiqasan, bu yerga kelganday emas, balki butunlay boshqa holatda bo'lasan. Sen kattarasan, chiroyli va aqli bo'lib yetishasan, ko'p narsani biladigan bo'lasan”, debdi.

— Bolalar bu qanday saroy ekan-a? — deydi o'qituvchi.
— Bu maktab, ilm olish dargohi.

Sehrli saroyning ichkarirog'iga kirib borsak, bolalarning aqlini charxlovchi matematika faniga duch kelamiz. Matematika fanini o'rganishdan maqsad to'g'ri va xatosiz hisoblashni egallash bilan bir qatorda kompyuter saboqlarini o'zlashtirishdir. Shu tariqa “Sehrli saroy” didaktik usuli orqali maktabga ilk qadam qo'ygan boshlang'ich sinf o'quvchilarida maktabga, ilm olishga muhabbat shakllantiriladi.

Nasiba YO'LDOSHEVA,
Qo'shrabot tumanidagi
64-maktabning boshlang'ich sinf
o'qituvchisi

Populyatsiya genetikasi Xardi-Vaynberg qonuni

Xardi-Vaynberg qonuni odam irsiyatini o'rganish bo'yicha oxirgi usullardan biri bo'lib, populyatsion statistik tarkibga kiradi. Bu usul 1809-yili matematik Xardi va antropogenetik Vaynberg tomonidan kashf etilgan va ularning sharafiga Xardi-Vaynberg deb nomlangan. Bu qonun populyatsiya tarkibidagi organizmlarni genetik jihatdan tahlil qilish imkonini beradi.

Bizga ma'lumki, populyatsiyalar tarkibidagi dominant gomozigota, geterozigota va retsessiv gomozigotalar formasi mavjud. Odamdagi gen va xromosoma kasalliklari har 10 000 chaqaloqdan 1 tasida kuzatiladi, yoki albinizm kasalligi har 10 000 yoki 200 000 chaqaloqdan 1 tasida uchraydi, bu esa Xardi-Vaynberg qonunining yorqin namunasidir. Ya'ni, Xardi-Vaynberg qonuni ideal (barqaror, normal) populyatsiya uchun xos. Biroq populyatsiyadagi individlar sonining kamayotgani yoki populyatsiya to'liqini yuqori bo'lgan populyatsiyalar uchun xos emas. Populyatsiya tarkibidagi dominant genlarni A deb, retsessiv genlarni esa a deb olamiz. Xardi-Vaynberg qonuni bo'yicha dominant genlar P harfi, retsessiv genlar esa q harfi bilan ifodalanadi. Ko'pincha Xardi-Vaynberg qonunida massa ulushi bo'yicha olinadi. Populyatsiyadagi barcha dominant va retsessiv genlar 1 ga teng bo'lishi kerak. $P+q=1$ yoki foiz bo'yicha: $P+q=100$ foiz

1-masala. Bir shaharda 200 000 kishi istiqomat qiladi. Shu shaharda har 10 000 odamdan 1 nafari albinizm bilan kasallangan. Shaharda albinizm kasalli bo'yicha geterozigota, gomozigotalar soni yoki albinizmga uchragan organizmlar soni nechta?

Yechish: Bu masalani Xardi-Vaynberg qonuni bo'yicha ishlash kerak bo'ladi.

Aa x Aa
AA Aa aa
1 2 1 buni formulaga aylantiramiz:
 $P^2 + 2p \cdot 2q + q^2 = 1$ (AA) (Aa)

Izoh: (AA) bo'lgani uchun P^2 , ya'ni A Pga aylanadi, (Aa) 2 ta bo'lganini ochib $2P \cdot 2q$, ya'ni A lar 2 ta shuning uchun koeffitsiyenti 2p, aa esa 2q ga aylanyapti. a q ga aylangani uchun 2 ta (aa) q^2 deb ifodalanyapti. Masala shartida shahardagi odamlar soni 200 000 edi. 10 000 tadan 1 tasi albinizm bilan kasallangan. Shu 10 000 odamdan nechitasi albinizmga uchraganini massa ulushida hisoblab olamiz. Buning uchun:

$1 = 0,0001$ Demak: $q^2 = 0,0001$
 10000
 $q = \sqrt{0,0001} = 0,01$ $q = 0,01$

P ni topish uchun $P + q = 1$ dan $1 - 0,01 = 0,99$ $P = 0,99$.

Ya'ni, P – dominant genlarning chastotasi 0,99 ga teng, retsessiv genlar chastotasi esa 0,01 ga teng bo'ladi. Foiz bo'yicha $P = 99$ foiz $q = 1$ foiz teng.

$P^2 + 2 \cdot P \cdot q + q^2 = 1$
 $0,99^2 + 2 \cdot 0,99 \cdot 0,01 + 0,01^2 = 1$
(AA) (Aa) (aa)
AA-0,09801 Aa-0,0198 aa-0,0001
Shaharda $200000 \cdot 0,9801 = 196200$ (AA) sog'lom
 $200000 \cdot 0,0198 = 3960$ (Aa) albinizm kasalligi bo'yicha tashuvchi.
 $200000 \cdot 0,0001$ (aa) kasal — Albinizm.

2-masala. Toshkentda zotsiz itlar populyatsiyasi ichidan 245 tasi kalta oyoqli va 24 tasi normal oyoqli ekanligi aniqlandi. Kalta oyoqlilik dominant – A, normal oyoqlilik retsessiv – a. Shu populyatsiyada A va a allellar chastotasi va AA, Aa, aa genotipli organizmlar sonini aniqlang.

Yechish: $245 + 24 = 269$ $269 - 100$
 $24 - x = 9$
 $9 = 0,09$ $\sqrt{0,09} = 0,3$ (a), (A) – 0,7.
1 0 0
 $0,3 \cdot 100 = 30\%$ - (a).
A – 70% bo'ladi, ya'ni $100\% - 30\% = 70\%$
A-0,7% bo'lsa AA – $0,7 \cdot 0,7 = 0,49$
 $2Aa - (0,7 \cdot 0,3) \cdot 2 = 0,42$
aa – $0,3 \cdot 0,3 = 0,09$
Ya'ni: $p^2 + 2p \cdot 2q + q^2 = 1$
 $0,7^2 + 2 \cdot 0,7 \cdot 0,3 + 0,3^2 = 1$
 $0,49 + 0,42 + 0,09$
 $= 1$
AA Aa aa

Topshiriq: Xitoy xalqida normal bo'yli kishilar sonining uchrash darajasi 1:25 bo'lsa $125 = \sqrt{0,04} = 0,2$ 20 foiz a uchun, A-0,8 → 80 foiz uchun 200 000 aholi yashaydigan hududda gomozigota dominant pakana geterozigotali pakana va retsessiv normal bo'yli odamlar sonini aniqlang.

Feruza QALANDAROVA,
Hazorasp tumanidagi
45-maktab o'qituvchisi

Dunyoviylik – dahriylik, diniylik – mutaassiblik degani emas

Dunyoviylik – bu dahriylik degani emas. Din va diniy e'tiqod butunlay rad etiladigan hayot qanday g'ayriinsoniy ko'rinishga ega ekanini biz yaqin tariximiz misolida yaxshi bilamiz. Afsuski, bu haqiqatlarni bugun hamma ham birdek anglamoqda, deya olmaymiz. Kimdir “dunyoviylik” shiori ostida dini “qotib qolgan aqidalar va eskilik sarqiti”, deb talqin qilib, o'z diniy qadriyatlariga amal qilayotganlarni mutaassiblikda ayblasa, yana kimdir “diniylik” shiori ostida dunyoviylikni “dahriylik”, deb talqin qilib, dunyoviy tamoyillarga amal qilayotganlarni dinsizlikda ayblaydi.

Xo'sh, bu masala milliy tariximizda, ajdodlarimizning boy, bebaho ilmiy meroslarida qanday o'z aksini topgan? Ya'ni, ularda dunyoviylik va diniylik o'rtasida “xitoy devoni” mavjud edimi?

O'rta asr musulmon Sharq olimlarining muvaffaqiyati sabablaridan biri ulardagi diniy va dunyoviy tafakkur uyg'unligidir. Buni nimada ko'rish mumkin? Avvalo, o'rta asrlarda Movarounnahrda faoliyat olib borgan olimlar ham diniy, ham dunyoviy ilm-fan sohalarida, ularni bir-biriga zidlab qo'yimay ijod qilib asarlar yozdilar. Chunki, bu ijod mahsuli olimning yaxlit bir ongi, tafakkuri, qalbining hosilasidir. Shu sababli ular dunyo ilm-fanida ustoz bo'lishdi, ularning o'lmas, zavol bilmas asarlari bugungi jahon ilm-fani taraqqiyotiga asosiy zamin bo'ldi.

Aslida ilmiy diniy va dunyoviy deb tasnif qilish shartli bo'lib, ular ikki qarama-qarshi tomon emas, balki bir-birini to'ldiruvchidir. Ma'lumki, Qur'on tafsiri, hadis, aqida (kalom), fiqh, tasavvuf kabilarni diniy ilm; kimyo, fizika, matematika kabilarni esa dunyoviy fan deb ajratish keyingi davrda urf bo'ldi. Biroq har ikkalasida ham asosiy bosh maqsad inson man-

faati bo'lib, jamiyat taraqqiyoti masalalarini o'z ichiga olgan.

Din sotsiopsixologiyasi mutaxassislari tomonidan jamiyatdagi diniylik va dunyoviylik muhiti ilmiy tahlil va tadqiq etilsa, muayyan ilmiy asoslangan xulosalar va tavsiyalar berilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Avvalo, turli dinlarning ta'limotlaridagi diniylik va dunyoviylikka bo'lgan munosabatni hamda ilmlar tasnifini ko'rib chiqsak.

Janubi-Sharqiy Osiyo diniy ta'limotlariga ko'ra dunyo inson ruhiga nisbatan go'yo qafas misoli tasvirlanib, u barcha musibatlarining sababchisi, deb talqin etiladi. Inson nirvanaga – abadiy sokinlik rohatiga yetishish uchun o'zini ko'proq qiynashi, tanasini uqubatga qo'yishi, dunyodan, undagi barcha lazzatlardan voz kechishi talab etiladi.

O'rta asrlar G'arbida cherkovning hokimiyatni egallab, ilm-fan taraqqiyotiga jiddiy qarshilik ko'rsatishi, olimlarning inkvizitsiya qilinishi, keyinchalik, ma'rifa-parvarlik harakati hosilasi o'laroq g'arbiy Yevropada har qanday dindand bezish, diniylikni butunlay inkor etish g'oyasi

asosida ateizm, indifferentizm, sekularizm g'oyalari shakllandi.

Sobiq sovet ittifoqi davridagi dinga agressiv ateistik hujum natijasida dunyoviylik diniylikka qarama-qarshi qo'yildi.

Hozir rivojlangan demokratik davlatlarda esa, bunday qarash tamomila o'zgaragan. Sekularizm – dunyoviylik diniylikka zid qo'yilmaydi, hech bir e'tiqod inkor etilmaydi, balki har qanday diniy e'tiqodga tabiiy-ijtimoiy fenomen sifatida qaraladi, millati va fuqaroligidan qat'i nazar, barcha uchun vijdon erkinligi qonun bilan kafolatlangan.

Islom dini manbalarida “diniy va dunyoviy” ilm yoki diniylik va dunyoviylik tarzida emas, balki “dunyo va oxirat” tushunchalari ko'pincha yonma-yon uchraydi hamda dunyo va oxirat hayoti yoki ne'matining turi jihatidan tasniflanib, “dunyoviy va uxroviy” tarzida turlanadi.

Bunda diniy va dunyoviy emas, balki bu dunyodagi hayot va undan keyingi oxiratdagi hayot zamon va makon jihatidan tasniflanadi, o'zaro zidlanmaydi.

Masalan, Baqara surasining 200-201-oyatlarida: “Odamlardan ba'zilari: «Robbimiz, bizga bu dunyoda bergin», – deydi va oxiratda unga nasiba yo'qdir. Va ulardan ba'zilari: «Robbimiz, bizga dunyoda ham yaxshilik, oxiratda ham yaxshilik bergin va bizni olov azobidan saqlagin», – deydi.” Zuho surasining 4-oyatida: “Va albatta oxirat sen uchun bu dunyodan yaxshidir.” A'lo surasining 16-17-oyatlarida: “Balki dunyo hayotini afzal ko'rsizlar? Ammo oxirat yaxshi va boqiydir”.

Hadislarda ta'kidlanishicha, “Kim dunyoni xohlasa tijorat qilsin, kimki

oxiratni xohlasa zohid bo'lsin va kimki ikkisini ham xohlasa ilm bilan shug'ullansin”. “Alloh kimga yaxshilikni ravo ko'rsa, uni dinda faqih (ilmi) qilib qo'yadi”. “Dunyo ishlaringizda o'zingiz ilmiroqsiz”. “Islomda tarki dunyo qilish yo'q”.

Hadislarda bayon etilgan duolarda “dinda, dunyoda va oxiratdagi afv-ofiyatni” so'rash, istixora duosida “dinim va dunyomda yaxshilik bo'lsa” kabi iboralar qo'lingan. Shuningdek, “foydali yoki laduniy ilm” so'ralib, “befoyda ilm”dan esa panoh so'ralgan.

Mazkur hadis va oyatlarda yo dunyo, yo oxiratdan birini tanlash, ikkinchisini tark etish taklif etilmay, balki kategoriyalashtirilib, afzalligi bayon qilinmoqda.

Shuningdek, ixtiyoriy yoki majburiylik jihatidan ham farzi ayn ilm (barchaga majburiy) va farzi kifoya ilm (barchaga ixtiyoriy, ayrimlarga majburiy) shaklida ham tasniflanadi. Masalan, tibbiyot ilmi – farzi kifoya ilm, ya'ni barchaga ixtiyoriy, ammo tabib uchun esa farzi ayn, ya'ni majburiydir. Shu kabi, ibodat va shaxsiy-ijtimoiy munosabatlarga oid boshlang'ich bilimlarni bilish barcha uchun minimal zaruriy (farzi ayn) bo'lib, chuqur bilimga ega bo'lish esa ixtiyoriy (farzi kifoya). Ammo shu soha mutaxassislarning puxta bilimiga ega bo'lishlari maksimal zaruriy (farzi ayn). Demak, tabib uchun tibbiyot ilmi ikkinchi darajali shunchaki “dunyoviy” emas, balki diniy talab hamdir.

Zero, dunyoviylik dahriylik degani emas, diniylik ham mutaassiblik degani emas.

Jahongir TOHIROV,
Imom Moturidiy xalqaro
ilmiy-tadqiqot markazi bo'lim
boshlig'i

Bola betarbiya bo'lib tug'ilmaydi

Ota va bola munozarasi elimizga begona emas. Mirzo Ulug'bek va uning o'g'li Abdullatif... Mahmudxo'ja Behbudiyning “Padarkush” dramasida ham ana shunday fojia aks etadi. U o'zbek dramaturgiyasining ilk mevasi.

Behbudiy 1916-yildayoq chor hukumatini ag'darmoqchi bo'lgan bolsheviklarning – sovet hukumatining asosiy mafkurasidan ogoh qilmog'chi bo'lganday tuyuladi. Bolsheviklar ko'hna Turkistondagi barcha davlatlarni otani o'g'ilga, o'g'ilni otaga qarshi qo'yish yo'li bilan egalladi. “Yosh buxoroliklar” harakati – Buxoro amirligini, “Yosh xivaliklar” esa Xiva xonligini qulatishda sovetlar qo'lida qo'g'irchoq bo'ldi. Ota musulmon, o'g'il esa kommunist.

Bunda aybdor kim? Aybdor – otalar, katta avlod yoshlarni to'g'ri yo'lga sololmadi, ularga ilm bermadi, to'g'ri tarbiyalamadi.

“Padarkush”da o'qituvchi otani necha bor o'g'lini ta'limga yo'naltirishga undaydi. Ota esa moddiy boyligi bor odamga ilm kerak emas, deb bildi. Vaholanki, boylikni topish va uni asrash, miqdorini yanada ko'paytirish uchun ham ilm, malaka kerak. Bolalar tabiatan o'zgaruvchan, har qanday yangiliklarga ishqiboz bo'ladi. Yosh avloddagi bunday o'zgarishlarni vaqtida anglab, ularni to'g'ri yo'lga boshlash – biz kattalarning zimmamizda.

Mahmudxo'ja Behbudiy qalanga olgan har qanday muammo avvaliga oriflik, ilm-ma'rif, zamonaviy bilim, taraqqiy etgan dunyo ahli bilan baravar bo'lish, hurriyat va muxtoriyat kabi masalalar bilan uyg'unlashib ketadi. Birgina “Padarkush” dramasi nomiga “o'qimagan bolaning holi” ilovasining qo'shilishida ham o'qishga, ma'rifatga undash bor. Unda o'qimagan bolaning kelajagi barbod

bo'ladi, el-yurtiga foydasi tegmaydi, oxir-oqibat otasining qotiliga aylanadi, degan g'oya o'zining badiiy-sahnaviy talqinini topgan. O'z otasi o'limiga sababchi bo'lgan Toshmurod obrazi – o'qimagan bolaning ojiz, ayanchli qiyofasi.

Behbudiy o'zini qiynab kelgan, o'nlab maqolalarida ta'kidlagan haqiqatni Ziyoli obrazi vositasida drama yakunida shunday bayon etadi: “Agar bularni otasi o'qutsa edi, bu jinoyat va padarkushlik alardan sodir bo'lmas edi... Oh, haqiqatda boyni o'ldirgan bilimsizlikdir. Bizlarni xonavayron, bachagiryon va bevatan va bandi qilg'on tarbiyasizlik va jaholatdir: bevatonlik, darbadarlik, arasot, faqru zarurat va xorliklar hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidir. Dunyoda taraqqiy qilgan xalq ilm vositasi ila taraqqiy qiladi...”

Men uchun asarning eng ta'sirli joyi Toshmurod va uning shishadoshlari qotillikdan so'ng ham o'z maishatlarini davom ettirganlaridir. Otasining tanasi sovimasdan turib aroq ichgan, ishrat qilgan yigitchani kim deb atashni ham bilmaysan kishi. Yana bir achinarli tomoni Toshmurod, Tangriqul, Davlat va Noming 15–17 yashar bolalar ekanligi – uydagilari tomonidan ayni nazorat kuchaytiriladigan yoshdagi bu murg'aklarning o'sha paytdagi ishratxonalarida bemalol yurishi aqlga sig'maydi. Bolalarga, bo'ya maslahat beradigan, to'g'ri yo'l ko'rsatadigan domla va ziyolining o'zlari ham tarbiyaga muhtoj – biri nos, biri tamaki chekadi.

Tarbiya – bir kunlik ish emas. Shu bilan birga bola tarbiyani har kimdan olishi kerak emas. Qadimiy kitoblarda “Farzandlaringiz sizning aksingizdir” deyilgan. Tarbiyaning eng samarali usuli bu shaxsiy namuna bo'lishdir.

Bolaning ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy, iqtisodiy huquqlarini to'la ta'minlash maqsadida qabul qilingan qonunlarimiz va ularning targ'iboti hamda ijrosida hali ko'p ishlar qilishimiz kerak. Bugungi tez o'zgarayotgan

yo'tgan xatarli dunyoda hushyorligimizni har doim oshirib borishimiz lozim. Targ'ibotning eng samarali usullaridan foydalanishimiz, qaysi soha vakili bo'lmaylik, bolalar tarbiyasida qo'lni qo'lga berishimiz lozim.

Telekanallarda odobga salbiy ta'sir qiladigan ko'rsatuvlarga turli cheklolovlar o'rnatish bo'yicha amaldagi qonunchiligimizga o'zgartirish kiritilgan bo'lsa-da, “7+”, “16+”, “20+” kabi yozuvlar nega faqat efirming boshidagina 5 yo 10 daqiqa namoyish etilishi kerak?

Amaldagi qonunchiligimizda spirtli va tamaki mahsulotlari reklamasi to'liq taqiqlangan, 20 yoshdan kichiklarga kirish taqiqlangan bunday do'konlar nega ta'lim muassasalariga juda yaqin joylarda bemalol faoliyat yuritishi kerak?

Milliy qonunchiligimizda ham, qadriyatlarimizda ham taqiqlangan yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh holatlarining uchrayotgani ham qonunchilik targ'ibotida yetarli ish olib bormayotganimizning oqibati. Yaqin qarindoshlardan tug'ilgan farzandlar umri davomida o'zini o'zi nobud qilishga bahona qidirib yurishi ilmiy tomondan isbotlangan.

Har bir qonun va uning moddasi zamirida inson taqdiri, kelajagimiz bardavomligi turadi. Bizda inson qadri, uning hayoti, haq-huquqi oliy qadriyat hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarimiz, jumladan bolalarning 25 xildan ortiq huquqlari o'z aksini topgan hamda farzandlarimizning barcha huquqlari har qanday tajovuzdan himoya qilinishini davlat o'z zimmasiga olgan. Bolalarini barcha xavflardan har tomonlama asragan davlat qudratli bo'ladi. Qudratli davlatgina o'z fuqarolarini himoya qila oladi.

Bola betarbiya bo'lib tug'ilmaydi. Uni to'g'ri tarbiya qilolmagan ota-ona va jamiyat bo'ladi.

Nargiza HAYITBOYEVA,
Olmazor tumanidagi
326-IDUMning ona tili va adabiyoti fani
o'qituvchisi

Mutolaa

Sohibqironning yigirma yetti mamlakatni o'z ichiga olgan markazlashgan qudratli saltanatni barpo etish strategiyasi, jahon harbiy san'atiga qo'shgan ulkan ulushi, iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy-madaniy, diniy - ma'rifiy nuqtayi nazaridan o'rta asr tamadduni rivojida tutgan o'rni, Ona yurt ravnaqi, Vatan tinchligi, el-ulus xotirjamligi kabi ustuvor yo'nalishlardagi xizmati alohida tahsinga sazovor.

Davlatchiligimizning tom ma'nodagi asoschisi Amir Temur hayot yo'lini yoritishga bag'ishlangan turkiy, forsiy va arab tillarida bitilish, hozirgacha yetib kelgan yozma manbalarni chuqur tadqiq etish, ulardagi ashyoviy materiallarni sinchkovlik bilan o'rganish Sohibqironning el-ulusga rahnamolik qilish, mamlakatni ichki va tashqi dushmanlardan xalos etish, saltanatni oroyish va osoyish toptirish, raiyat turmush tarzini yuqori pog'onaga ko'tarish, o'z davrining tengi yo'q qurolli kuchlarini shakllantirish, ilm, fan, san'at, madaniyat ahliga homiylik ko'rsatish singari iste'dodi va salohiyati xususida obyektiv mulohaza yuritishga undaydi. Zero Sohibqiron tarixiga xos manbalarni kashf etish, ular ustida fundamental izlanishlar olib borish, qo'lyozma manbalarni nashr qilish, ularning mazmun-mohiyati bilan nafaqat ilm ahli, shuningdek, keng xalq ommasini tanishtirish muhim ijtimoiy ahamiyatga molikdir.

Keyingi yillarda Amir Temur tarixi bayon etilgan ko'pgina manbalarda dunyo yuzini ko'rdi. Chunonchi, Nizomuddin Shomiy, G'iyosuddin Ali, Sharafuddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh, Hofizi Abro', Muinuddin Natanziy, Fasih Xavofiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Ulug'bek mirzo, Xondamir, Muhammad Ali ibn Darvesh Ali Buxoriy, Zahiruddin Muhammad Bobur, Muhammad Haydar mirzo kabi muarrixlarning bebaho asarlari xalqimizga taqdim etildi. Yaqindagina Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori Hamidulla Dadaboyevning "Nodirabegim" nashriyoti tomonidan chop etilgan "Sohibqiron sarkardalari" (13 bosma toboq) nomli kitobi bu boradagi ishlar jadal sur'atda davom etayotganini ko'rsatadi. Mazkur risola ilmiy xodim, tarixchilar, temurshunoslar, harbiylar, keng kitobxonlarga mo'ljallangan bo'lib, sodda va ravon tilda yozilgan.

"Temur tuzuklari"da ta'kidlanishicha, harbiy san'at sir-asrorini bilgan, dushman safini parokanda qilish yo'l-yo'rig'ini yaxshi egallagan, mushkul paytlarda dadil harakat qiladigan, hech qanday to'siqdan tap tortmaydigan, qo'shinda sodir bo'lishi ehtimoldan xoli bo'lmagan tartibsizlikni vaqtida bartaraf eta oladigan yovvur va mohir jangchilargina lashkarboshilikka qo'yilgan.

Amir Temur tuzgan armiya o'ta intizomli bo'lib, sarkarda muhobata chog'i qo'shin qismlarini san'atkorona boshqarishga, jang taqdiri hal bo'ladigan joylarga harbiy kuchlarni o'z vaqtida ustalik bilan yo'llashga, har qanday to'siq va g'ovni tadbirkorlik bilan oshib o'tishga, lashkarning javovar ruhini zarur darajada saqlashga muayassar bo'lgan. Risolaning kirish qismida muallif Sohibqiron armiyasida xizmatda bo'lgan sarkardalarni shartli ravishda to'rt guruhga ajratgan.



Birinchi guruhga Sohibqiron markazlashgan saltanat barpo etish iddaosi bilan siyosat sahnasiga chiqqan vaqtdan umrining so'nggi onlarigacha unga sadoqat va vafosi bilan hamfikr, hamnafas bo'lgan Sulaymonbek barlos, Jakubek barlos, Sayfuddinbek nukuz, Abbas qipchoq, Dovudbek dug'lat, Muayyadbek arlot, Oqbo'g'abek nayman, Shayx Ali bahodir, Elchibo'g'abek bahodir, Eygu Temurbek bahodir singari urug' va qavm sardorlarini kiriritish joiz. Ikkinchi guruhdan Sohibqironning do'stlari, tengqurlari, sodiq safdoshlari, farzandlari o'rin olgan. Bular: 1383-1384-yili vafot etgan amir Jaku barlosning o'g'li amir Jahonshoh, Mizrob va Ziyrak, inisi G'iyosiddin, nabirasi Burunduq, 1391-yili To'xtamishxon bilan bo'lgan tengsiz jangda halok bo'lgan Eygu Temurbekning qondoshi Shohmalik, Saribo'g'abekning farzandlari Berdibek, Shayx Nuruddin va Hojibek, O'rusbog'a, Abbas bahodirning o'g'illari — Ali, Usmon, Umar, Shamsuddin va boshqalar.

Uchinchi guruhni Sohibqironning farzandlari, nabiralari, yaqin tug'ishganlari tashkil etadi. Chunonchi, Jahongir mirzo, Umarshayx mirzo, Amiranshoh mirzo, Shohrux mirzo va ularning farzandlari Muhammad Sulton mirzo va Pir Muhammad mirzo ibn Jahongir mirzo, Pir Muhammad mirzo, Rustam mirzo va Iskandar mirzo ibn Umarshayx mirzo, Abubakr mirzo, Umar mirzo va Xalil Sulton mirzo ibn Amiranshoh mirzo shular jumlasidandir.

To'rtinchi guruhga Sohibqiron tuzgan ulkan saltanat tarkibiga kirgan qator el-yurtlarning hukmdorlari, sarkardalarini kiriritish mumkin: Ali Sulton Xurosoniy, Ali Mosuliy, Yodgor Andxudiy, Ibrohim Qummiy, Ko'cha Malik, Muborakshoh Sanjariy, shayx Ibrohim Shirvoniy va boshqalar (6-7 betlar).

Amir Temur qo'mondonlar tarkibining harbiy ishda talab darajasida mahorat va malakaga ega bo'lgan iste'dod sohiblaridan shakllanishiga katta e'tibor qaratgan. Harbiy qobiliyati bor muayyan bir shaxs, ijtimoiy holatidan qat'i nazar, lashkarboshilik rutbasini qo'lga kiritgan. Sohibqironning xos navkarlaridan bo'lmish Mubashshirning Amir Temurning shaxsiy rahnamoligida amirlik darajasiga o'sib borishi zikr etilgan mulohazani tasdiqlaydigan yaqqol misoldir. Sohibqiron shaxsan o'zi oliy bosh qo'mondonlik qilgan barcha yirik muhorabalarda bevosita qatnashgan amir Mubashshir, masalan, Turkiya sultoni Boyazid Yildirim bilan 1402-yili Anqara bo'sag'asidagi jangda Amiranshoh mirzo, Muhammad Sulton mirzo, Pir Muhammad mirzo, ulug' amirlar — Shayx Nuruddin, Ali Sulton, Ali Qavchin hamda Taxurtan qatori qo'shinning burong'oridan joy olgan.

Kitobda uch yuzdan ortiq sarkarda va ularning javovar faoliyati bilan aloqador ma'lumotlar alifbo tartibida keltirilgan va unda har bir maqolaning manbasi aniq ko'rsatilgan. Masalan: Ajabsher — Sohibqironning beklaridan, Anqara jangida Amir

Sohibqiron sarkardalari

Temur qo'mondonligidagi qo'shin markazi(g'o'l)ning o'ng qanotidan o'rin olgan. 1409-yilning may oyida Pir Muhammad mirzo ibn Jahongir mirzo tomonidan Anka Temur baxshi bilan birga Huluvayta boshqaruviga belgilangan. 1410-yilning 20-aprelida Ulug'bek mirzo va amir Shohmalik qo'shini amir Shayx Nuruddin lashkari bilan kechgan muhorabada mag'lubiyatga uchragan bo'is Shohrux mirzo tomonidan bir nechta nomdor sarkardalar qatori Movarounnahr sarkardalari sari jo'natilgan. Ajabsher 1415-yilning aprelida vafot etgan Iyjal mirzo o'rimga tayinlangan Ilingir mirzoni Raygacha kuzatib qo'ygan lashkarboshilar safida turgan (Ad. Nizomuddin Shomiy. Zafarnoma. T., 1996; Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. - T., 1997; Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa'dayn va majmai bahrayn. II jild, birinchi qism. 1405-1429-yillar. - T., 2008). Ayni paytda, mazkur lug'atdan o'rin olgan maqolalar hajman bir-biridan farq qiladi. Zotan, muayyan shaxs to'g'risidagi maqolaning katta yoki kichikligi shu shaxsga doir ma'lumotning tarixiy manbalarda nisbatan keng yoxud o'ta qisqa berilgani, qolaversa, mavjud materiallarning barchasini risolada qayd etish imkoniy qo'qligi bilan izohlanadi. Masalan: Ali (21-bet), Ardovan baxshi (28-bet), Berdibek qavchin (35-bet), Umarbek Nekro'z (128-bet) singari antroponimlarga 3-4 qator izoh berilgan bo'lsa, Allohdo (25-26-betlar), Burunduq (35-37-betlar), Jahonshoh bahodir (52-55-betlar), Pirmuhammad mirzo (88-91-betlar), Shayx Ali bahodir (134-137-betlar), Shayx Nuruddin (142-150) kabi shaxslarga bir yarim betdan to'qqiz sahifagacha o'rin ajratilgan.

Tarixdan ma'lumki, Temurbek salkam bir yarim asrlik mo'g'ullar zulmiga chek qo'yish, tarqoqlik va boshboshdoqlik oqibatida Movarounnahrda hukm surayotgan o'zaro urush va nizolarga barham berish, ichki va tashqi bosim tufayli nochorlik botqoq'iga botib qolgan xalq ommasiga madad qo'lini cho'zish, xarob bo'lgan qishloq va shaharlarni qayta tiklash, saltanatni tashqi bosqinlardan ehtiyot qilish singari maqsadlarni ro'yog'ba chiqarishga bel bog'lagan. Kitobda mazkur vazifalarning amalga oshirishida, keyinchalik Temurbek qurgan ulkan saltanatni boshqarish, qo'shin qismlariga sarkardalik qilish, ko'pdan-ko'p muhorabalarda qatnashish, el-yurti obodonlashtirish ishlarida faollik ko'rsatgan Abubakr mirzo (17-bet), Iskandar mirzo (40-bet), Sulton Husayn mirzo (109-110-betlar), Xundaydod Husayniy (64-bet), Shayx Ibrohim (139-140-betlar), Yusufxoja (165-bet), Hasan So'fi tarxon (171-173-betlar) kabi maslakdoshlari, safdoshlari to'g'risidagi ma'lumotlar o'z aksini topgan.

Harbiy ishning murakkab sir-asroridan to'la voqif bo'lgan, g'anim kuchlari saflarini sindirish usullarini puxta egallagan, murakkab vaziyatlarda ham esankiramay dadil harakat qiladigan, har qanday to'siq hamda g'ovlarni ustalik bilan bosib o'tadigan, maqsadlarning ro'yog'ba chiqishi yo'lida o'z jonini ham baxshida etadigan fidokor va sodiq shaxslarni Sohibqiron, birinchi navbatda, qo'shinda mavjud bo'lgan turli lashkarboshilik vazifalariga loyiq topar, askarlar taqdirini ularga to'pshirar edi. Bo'lajak sarkardalar juda yoshligidan harbiy san'atning nozik jihatlarini bilan yaqindan tanishgan, tajribali murabbiylar, ya'ni otabelardan askariy ish borasida saboq olgan, harbiy harakatlarda faol ishtirok etganlar. Kitobga murojaat qilamiz: Jahongir mirzo (50-bet)

va Umarshayx mirzo (123-bet) o'spirinlik chog'idan siyosiy hamda harbiy hayotda faollik ko'rsatgan. Mironshoh (Amiranshoh, 71-bet) o'n to'rt yoshida Xuroson mulki hukmdori etib tayinlangan va shu o'lkaning qo'shinlarini boshqargan. 1377-yili tavallud topgan Shohrux mirzo (161-bet) 1390-1391-yillari amalga oshirilgan yurishlarda qatnashgan. Ma'lumki, Sohibqironning sarkardalik salohiyati uning bir necha qatla oz adadli askar bilan ko'psonli g'anim lashkariga qarshi jang olib borgan vaziyatlarda ro'yost namoyon bo'lgan. Amir Temur aksar hollarda miqdor jihatidan bir necha bor ziyod bo'lgan yovga ro'baru kelib, o'ziga xos lashkarboshilik zehni ko'magida zafarlar quchgan. Sohibqironning mana shu jihati uning lashkarboshilari faoliyatida ham davom etgani "Sohibqiron sarkardalari" kitobida yoritib berilgan. Xususan, Hindiston yurishi vaqtida, Jaun daryosi bo'yida Sevinchak bahodir (103-105-betlar), Sayyid(Ali)xoja (96-97-betlar) va amir Mubashshirning (73-74-betlar) uch yuz kishilik otlig askarlari bilan Malluxoning to'rt ming suvoriy, besh ming piyoda, yigirma yetti javovar filiga qarshi mardonavor jangga kirib, hindlarni Dehli tomon chekinishga majbur etgan. Sarkardalarning jasorati, qahramonligi, dovyurakligi, harbiy taktik amaliyotlarni mohirona qo'llashi Amir Temur e'tiboridan chetda qolmas, aksincha, inoyat-u marhamatlar ko'rsatilar, munosib daraja-yu unvonlar bilan sharaflangan, turfa tortig'-u suyurg'ollar bilan siylanardi. "Sohibqiron sarkardalari" risolasida yozilishicha, 1388-yili Ko'cha Malik Mo'g'uliston hukmdorlaridan Inkot'ra ortidan quvlab borib, o'n uch navkari bilan Xo'jand yaqinidagi Jiyol mavzeyida yovning uch yuz jangchisiga shabixun qilib, Xo'jand va uning tevarak-atrofidan olingan asirlarni dushman turbidan qutqargan, ularni yo'l o'zigi' terib, yurtlariga yo'natgani bo'is Sohibqiron unga suyurg'ol tayin etadi va tarxonlik mansabini berish haqida farmon chiqaradi (64-bet).

Amir Temur sarkardalari haqida ilk bor yaratilgan ushbu kitobda materiallarni tegishli manbalardan to'plash, tartibga solish jarayonida biron-bir shaxsning ismi, nasabi, mansabi, lavozimi, unvoni, qavsi urug' yoki qavmga mansubligini ifodalovchi ma'lumotlarning rang-barangligi ko'zga tashlanadi. Jumladan, qorovulbegi (Donaxoja, To'kal, shayx Muhammad), qo'shunbegi (Bashariy, Musa, Odina), hazorabegi (Muborakshoh, Shayx Temur bahodir), hirovulbegi (Xitoy bahodir, Qaro Hindu), tumanbegi (Iydxoja, Mizrobbek), chag'dovulbegi (Hasan, Husayn), cherikbegi (Iskandar, Qimoriy inoq), dorug'a (Musofir Kobuliy, Temurtosh) singari 18 ta guruhga oid mansab, rutba va unvon sohiblari to'g'risida ma'lumotlar aks etgan. Shuningdek, apardi (Malash, Takash), arlot (Yodgor, Ramazon Qoracha), arg'un (Arg'un Malik, Arg'unshoh axtaxti), barlos (Abdulxoliq, Ali Darvesh), dug'lat (Dovudbek, Qutbuddin), jaloyir (Bahrom, Berdibek), nayman (Anushirvon, Lutfulloh), qavchin (Ardasher, Atalmish) kabi 27 ta urug', qavmga mansub lashkarboshilar faoliyati ochib berilgan. Qolaversa, manbalarda sarkardalarning ismi turlicha qayd etilgani ham muallifning e'tiboridan chetda qolmaydi. Bunda kishi nomlarining varianti qavs ichida keltiriladi: Ali (Alibek), Qaro Hindu (Hinduka), Malik Isa (Sulton Isa), Xovand Sa'id (Xond Said) va hokazo. Bundan tashqari, kitobdan o'rin olgan sarkardalarning

sulolasi: Shohrux mirzo, Iskandar mirzo, Iyjal mirzo; kasbi: Davlatshoh jibachi, Jalol bavurchi; laqabi: Apachi kalta, Tag'oy mergan kabilar kichik harflar bilan berilgan. Ta'kidlash kerakki, "Sohibqiron sarkardalari" kitobida lashkarboshilarning nafaqat javovarlik qobiliyati, yurishlari, jang-u jadallari, mansab pog'onasidan ko'tarilib borishi, ayni paytda, ularning bunyodkorlik ishlari, oilasi, farzandlari xususida ham muhim ma'lumotlarga ega bo'lamiz: Shohmalik o'ziga tegishli mulklarda madrasalar, xonaqohlar, masjidlar, rabotlar, bog'-u rog'lar, hovuzlardan iborat ko'pdan ko'p qurilishlar olib borgan. 1426-yilning 21-yanvarida vafot etgan Shohmalikning jasadi o'g'li Ibrohim Sulton va zavjasi Xond oqo tomonidan Mashhadga keltirilib, o'zi qurdigan maqbarada dafn etilgan. Shohrux mirzo Shohmalikning suyurg'oli bo'lgan Xorazmni idora qilishni uning farzandi Ibrohim Sultonga bergan. Shohmalikning boshqa bir farzandi Nurasaybek Jo'ki mirzo va Abusaid mirzo saroylarida xizmat qilgan, shoir va fozil kishi bo'lgan (159-160-betlar).

Mutaxassislarga yaxshi ayonki, Amir Temur tiriklik chog'idayoq saltanatni to'rt ulus(qism)ga taqsimlab, ularni o'g'il va nabiralarga boshqarish uchun bergan. O'ziga xos tarzda idora qilingan bu saltanat XVI asrning boshigacha dunyo siyosat sahnasida faoliyat ko'rsatdi. Risolada, xususan, Xuroson, Mozondaron, Jurjon va Seiston (markazi Hirot) Shohrux mirzoga (160-bet), G'arbiy Eron, Ozarbojyon, Iroq va Armaniston (markazi Tabriz) Mironshoh mirzoga (71-bet), Janubiy Eron (markazi Sheroz) Umarshayx mirzoga (123-bet), Afg'oniston, Shimoliy Hindiston (markazi G'azna, so'ngra Balx) Pir Muhammad mirzo ibn Jahongir mirzoga (87-bet) suyurg'ol tarzida taqdim etilganligi yozilgan maqolalar joy olgan. Kezi kelganda aytish joizki, Amir Temurning shaxsiy rahnamoligi ostida voyaga yetgan, o'rta asrning eng qudratli va intizomli armiyalaridan birini barpo qilishda, jahonshumul nusratlarni qo'lga kiritishda ham safdosh bo'lgan sarkardalarning hayot yo'lini asl manbalarda asosida chuqur tadqiq etish bugun har qachongidan dolzarb. Binobarin, Sohibqiron yaratgan qudratli armiya jahonning o'sha vaqtidagi eng ilg'or armiyasi sifatida tan olingani, keyinchalik ham buyuk sarkardalar, harbiy mutaxassislar tomonidan e'tirof etilgani, bir necha asrlar mobaynida ibrat va andoza vazifasini o'tagan hamda harbiy san'at tarixi sifatida keng ko'lmda o'rganilgani bejiz emas.

Uzun so'zning qisqasi, filologiya fanlari doktori, professor Hamidulla Dadaboyevning 300 nafardan ortiq sarkardalar hayotiga chizgilarni qamrab olgan "Sohibqiron sarkardalari" kitobida Amir Temur lashkarboshilarning sulolasi, mansabi, qavmi, laqabi, kasbi-kori, jamiyatda tutgan o'rni, fe'l-atvori, xulqi kabilar xususida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu izohlarga suyangin holda Temurbek davr-doshlari portretini chizish, ularning insoniy fazilatlarini, ichki va tashqi dunyosi haqida tasavvurga, xalqimiz tarixi haqida yangi ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.

Baxtiyor ABDUSHUKUROV, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti dekani, filologiya fanlari doktori, professor

Taqriz

Muborak sakson yoshi tomon shitob bilan borayotgan ruhshunos va shoir Mahmud yo'ldosh oliy ta'limni Moskvada, sobiq SSSR poytaxtida oldi va keyinchalik ruhshunos olim bo'lib yetishdi. Lekin uning qalbida badiiy ijodga, she'riyatga tug'ma bir qiziqish bor ediki, bu uni so'z saltanatiga olib kirdi.



Baland dor yoxud ruhshunos va shoir haqida so'z

Uning davriy nashrlarda chop etilgan ko'plab she'rlarini o'qiganman, lekin 2019-yili "Turkularim" she'riy to'plami ijodkor haqida yaxshi tasavvur uyg'otgani aniq gap.

Dastlab to'plamning nomi e'tiborimni tortdi. "Turku" qadimiy turkiy tilimizda qo'shiqni anglatadi va qo'shiq bo'lganda ham aynan turkiy tilidagi qo'shiqni. Kitobning muqovadan keyingi betida shunday to'rtlik pastdan yuqoriga qiya qilib yozilgan. U kitobning 217-betidan o'rin olgan:

Turkularim qonimla yozdim, Im, u - sirlar, jodir qa'riga, Turk imlarin qalbilma sezdim, Turkiylarim qodir bariga.

O'zbek tilining izohli lug'atida turkiylar jahondagi eng qadimiy va yirik etnoslardan biri deyiladi. To'plamdagi barcha she'rlarda ushbu tarixiy muhabbatdan g'urur va uning keyingi asrlardagi abgor holatidan afsus va nadomat ko'zyosh kabi sizib turadi.

Keltirilgan to'rtlikka qaytsak, undagi markaziy so'z IMdir. Bu so'z izohli lug'atda "Bosh iring'ab yoki yuz, ko'z, qosh, qo'l harakati bilan qilingan ishora, imo" tarzida tushuntiriladi. Bunday ko'lamga e'tibor bering, odamning barcha tashqi a'zolari - bosh, yuz, ko'z, qosh, qo'l ishtirok etmoqda bu so'zni izohlash uchun. Ana endi ushbu ko'lamni to'rtlikka qo'llab ko'ring hamda so'zning yangi qamrovini mushohada qiling. Lug'atdagi ma'no asosan moddiy asosga ega, lekin she'rda bu so'z ramzlashadi, turkular (qo'shiqlar), ya'ni she'rlarimga aylanadi. Qo'shiqning, she'rning har bir pardasi, bo'g'ini, so'zi, turog'i ham alohida-alohida, ham yaxlit holda imo-ishoraga aylanadi, ularning qa'rida esa cheksiz sir-sinoat yashiringan.

Bunday imlarning qa'rida esa azaliy qudrat bor.

To'plam muqovasi "Turkularim" dan keyin turkular im, turk - ular - im" tarzidagi yozuvni ko'ramiz. Bunda yana biz IM so'ziga urg'uni va turkular (qo'shiqlar, she'rlar) va yana turklar, turkular ham Im, nimagadir, qandaydir ulug' istiqbolga ishora ekani go'yo ta'kidlanganday...

Mahmud Yo'ldoshning she'riy to'plamiga oz-moz daxl qilganimga sabab, shu yo'l orqali ijodkorning falsafiy naql va shaklan suhbat, fikr olishuv tarzidagi

"Samoviy suhbat" dostoniga bir qur yuzadan nazar tashlashga o'tishdir.

Asar qo'lyozmasini (nashr etilmagan) shunday deymiz-da ikki-uch bora o'qidim, unga debocha yozish va ayrim izohlar berish zaruriyatini men taklif qilganman. Muallif buni e'tiborga olganidan mamnunman.

Bevosita asarga kelsak, u aytganimdek, falsafiy fikr almashuv tarzida bitilgan. Unda Zardusht, Iso, Forobiy, Al-Maariy, G'azzoliy, Ibn Sino, Mashrab kabi tarixiy shaxslar, buyuk olim, faylasuf va shoirlar bilan bir qatorda umumlashma timsollar: Ota, O'g'li, Binoyi yigitcha, Shayton, Shoir, Darvesh, Ovrupolik, 21-asr vakili, Ayol, Samoviy odam va Notanish ovozlari ishtirok etib, ular orasidagi turli ilohiy va dunyoviy masalalardagi fikr olishuvlar asar sumbatini tashkil etadi.

Undan tashqari, asarda Xor timsoli ham mavjud bo'lib, u asosan muallif bosh maqsadini, g'oyasini ifodalab keladi. Aytaylik, Shayton:

Goh Tangri deb qay bir gumrohni Tinchlik bermay jahonga men ham, To'plab o'n-o'n besh maddohni, "Keltir" deymen bir menga iymon

deyar ekan, insoniyat tomonidan o'zini Xudo deb o'lin qilganlar ortida, qalbida, vujudida e'zil turganlari ayta va yana deydi:

Ko'zim ochib ko'rgan bu jahon O'zgarayin bo'lmoqda badnom. Sen o'zgarsang to'xtaydi hijron Sen muqaddas, muqaddas odam.

Ilohiy kitobimiz Qur'oni karimdan bilimzki, Iblis la'ynning bosh vazifasi insonni yomonlikka, kufrga chalish va shu bilan uni Olloh buyurgan Buyuk sinovdan o'tkazish. Ya'ni Shayton bir jabhada so-

bit — odamning ezgu mavjudot ekanligini inkor etish. Dastlabki ikki misra shuni ta'kidlaydi, lekin so'nggi misrada Shayton Odamni nega muqaddas demoqda, yoki bu kinoyami? Bu savol ochiq qoladi. Buning ustiga, bu fikr asarning oxirida kelmoqda. To'g'ri, Shaytonning bu so'zlaridan, aniqrog'i, dastlabki ikki misradagi ma'nodan Xor norozi bo'lib, deydi:

Koinot bor joyda hayot bor ekan, Siz va biz adolat izlab yashaymiz. "Bo'l" va "To'xta" sidir doimo hamdam Komil jamiyatni Yerd boshlaymiz!!!"

Bu gap asarda yozilishicha, "...gulduros ovozlarda boshlanib takrorlanishda sekin-sekin pasayib boradi-da, shu asnoda sahna ham yopila boshlaydi!". Shundan so'ng shunday remarka beriladi: "Sahna yopiladi, momoqaldiroq ovozi butun zalni qoplab oladi!". Bunday "momoqaldiroq" ham ramz, hamda yuqorida aytilgan o'ziga xos IM bo'lsa ajabmas.

Shu taxlit asar yakunlanadi. Ko'rinadiki, muallif o'z oldiga katta maqsad va vazifa qo'ygan. Jahoniy masalalar haqida bahs-munozara qilishga bel bog'lagan. Muayyan yutuqlarga erishgan ham. Bu tarzidagi asar yozishga jur'at qilishning o'zi katta gap. Katta hayotiy tajriba,

bilim va tafakkur talab qilinadi, bunday asar yaratishga bel bog'lash uchun. Donishmand xalqimizning "Osilang baland dorga osil" degan gapi shu asar va uning muallifi uchun aynan mos.

Asar ayrim jihatlarini bilan buyuk jadd bobomiz Abdurauf Fitratning o'tgan asrning yigirmanchi yillarida yozgan "Shaytonning Tangriga isyonini" asarini eslatishi ham e'tiborga molik.

Men ilg'agan ayrim kamchiliklar haqida.

Birinchidan, asarning ifoda uslubi-da anqlik yetishmayotganday. Aytimoqchi bo'lgan fikr hamisha ham tushunarli tarzda ifoda etilmaydi, natijada ayrim fikr olishuvlar kitobxonda mavhum taassurot uyg'otadi.

Ikkinchidan, asar boshlanishida "Asha", "Avesto"da ham Yaratgan birinchi tilga olingan Yakkaxudolik ramzi, ma'nosida keladi", degan gap bor. Lekin hozir yangidan yozilayotgan qadimiy dunyo tarixida ilk Yakkaxudolik Oltoy turklaridan boshlanib, bu Tangrichilik degan qadimiy dunyoda keng tarqalgan din ekanligi bot-bot takrorlanmoqda. Rossiyaalik, turkiy qolmiq millatiga mansub ulug' olim va mutafakkir Murod Ajimning qator kitoblarida, xususan "Turkiylar va dunyo: maxfiy tarixi" ("Турки и мир: сокровенная история" М.АСТ, 2006) kitobida batafsil berilgan. Turkiychilik g'oyasi bilan sug'orilgan yuqoridagi kabi yaxshigina she'riy kitob yozgan muallif nega bu haqda bilmasligi biroz taajjubli.

Lekin nima bo'lganda ham muallif katta va ezgu maqsadga intilgan, baland dorga osilgan. Muayyan yutuqlarga erishgan ham.

Qolgan gaplarni asarning o'zidan o'qib va uqib olish mumkin, deb umid qilaman. Baland dor muborak bo'lsin.

Bolalar va kattalar

Maktabimiz yaqinida do'kon bor. Hamisha gavjum, nima istasangiz, topiladi. Xuddi Oybekning "Bolaning ko'ngli poshsho"sidagi Sobir baqqolning do'konining o'zi. Ba'zan kunlik xarid uchun ham tez-tez kirishga to'g'ri keladi, har kirganida turli muomala madaniyatiga ega xaridorlarga duch kelaman. Bu safargisi o'zgacha bo'ldi:

Do'konga kirib kelgan bolakay dadasining qo'lidan ushlab olgan edi, juda xursandligi beg'ubor yuz-ko'zidan bilinib turardi. Bolajon do'kon ichidagi o'yinchoq, shirinlik va maktab qurollariga birma-bir havas bilan qarardi, otasi esa buni dildan his qildi chog'i: "Qani, nima olamiz?" deya bolakayni so'roqqa tutdi. U esa yelka qisdi. Otasi ham bu holatni ko'rib: "Nimadan boshlasak ekan-a?" deganday do'kon yo'laklari va rastalari tomon yura boshladi. Shu payt do'konga yana bir mijoz — ota va bola kirib kelishdi. Ota to'g'riga yurib nos, sigaret olish uchun shoshildi va sotuvchidan "Nos qancha?", deb so'radi. Bolakay mo'ltirab narsalarga termular ekan, qip-qizil tovlanib turgan olmaga qarab yutinib qo'ydi. Ota nos, sigaret oldi-da, bolaga qarab "Manavini borib bobonga berasan" deya qo'lga nos xaltachani tutqazdi va ikkalasi do'kondan chiqib ketmoqchi bo'lgan bir paytda, qo'l telefoni jiringlab qoldi, ota: "Bo'ldi, oshna, gap yo'q, boraman osh pishguncha, hozir yo'ldaman", deya baland ovozda xursand bo'lib gapirib turardi. Hali ular chiqib ketib ulgurmasdan do'kon eshigidan 14-15 yoshlardagi bola — o'smir yigit kirdi-da: "Opa, bo'yni uzunidan bering, qaytimiga zakuskaga achchiqqina sho'r karammi, tuzlangan bodringmi bering, faqat tezlashtiring", deya murojaat qildi. Shu payt uning ham qo'l telefoni jiringlab: "Ha, dadajon, oldim, hozir boraman", deya, shosha-pisha

yugurib chiqib ketishga hozirlanganda yana telefoni jiringladi: "Oldim aytganlarimgizni, boryapman". Unga nimadir topshiriq berildi, shekilli, bola yana rastalar taraf yo'naldi va ikkita "Sarbon"ni ham xohlar-xohlama olib, sotuvchiga yuzlandi va "Agar yetmasa, hozir olib kelib beraman, bilasiz-ku". Rastalarni aylanib bo'lgan bolakay va ota ham bu paytda sotuvchi to'g'risida turishardi. Bolakay shunchalar xursand ediki, buni qo'lidagi sanoqcho'p, magnitli yozuv taxtacha, rangli qalam va rasm daftarni qattiq ushlab olganidan ham bilsa bo'lardi. Ota qo'lidagi plastik kartani sotuvchiga uzatar ekan, bolakay: "Dadajon, katta rahmat, ukamga ham beraman, ayamga ko'rsatsam, juda xursand bo'ladi, endi birga dars qilamiz" dedi-da, qo'lidagi narsalarni joylashtirib berishi uchun sotuvchiga berdi va o'zi dadasining qo'llaridan mahkam ushlab oldi va yuzlaridan o'pmoqchi bo'ldi. Dadasi narsalar solingan yelim xaltani olar ekan, bolakayni bag'riga bosib, "Polvonim, aqlligim o'zimming", deya erkaladi. Uchala xaridor ham eshik tomon yo'naldi...

Bu voqea juda tez va bir-biriga ulangan vaqt oraliqida sodir bo'ldi. Ammo uch otaning uch xil holati va uch xil munosabati dilimda qandaydir ta'riflab bo'lmaydigan his uyg'otdi. "Nega, nega?" degan savollar menga tinchlik bermasdi.

Ota — oila boshi, vatan va oila himoyachisi...

Bu bir kundalik holat, voqea-hodisa, lekin ko'z o'ngimda va dilimda bolakayning beg'ubor kayfiyati, narsalarga yutinib qaragan va qo'lida nosxalta bilan turgan bola va "... yetmasa..." degan o'y bilan turgan o'smir bahsga kirishdi...

Dilbar NORMURODOVA,
Termiz shahridagi
11-maktab o'qituvchisi

Farzandimiz ismidan uyalib qolmasin

Farzandiga munosib, chiroyli ism qo'yish ota-onaning muhim vazifalaridan biri. Chaqaloqqa munosib ism berish muhim va o'ta mas'uliyatli masala ekaniga ko'pchilik e'tibor bermaydi.

Xalqimiz ismlari nihoyatda rang-barang bo'lib, serma'no hamda tarixiydir. Ota-bobolarimiz chaqaloqning biror belgi bilan tug'ilganligi, tug'ilgan sanasi, fasli-yu nasligacha ahamiyat berishgan. Ko'pchilik tanish-bilishlarining ismlari orasida yoqtirganlarini farzandlariga qo'yishadi. Xulq-atvori, fe'li shu insonga o'xshasin, deya niyat qilishadi.

Ammo keyingi payt taqdidiy ismlar qo'yish kuchaydi. Hatto chet el seriallaridagi qahramonlarning, mashhur futbolchilarning ismlarini qo'yish holatlari uchramoqda. Maktabga qadam qo'rgan ayrim o'quvchilarning guvohnomalaridagi ismlarini ko'rib,

ularning ota-onalari bu ismlarning ma'nosini tushunarmikan, ism berayotganda bobo-buvilari qanday munosabatda bo'lgan ekan, degan o'y o'tadi xayoldan (Messijon, Ishani, Sharlotta, Sanjana, egizak qizlar Zita va Gita kabilari).

Muxlislikning ham, seriallarning ham davri o'tadi, lekin ism farzandning o'zi bilan butun umri mobaynida qoladi. Ertaga katta bo'lib, xalq orasida yurganida unga aka, opa, momo, bobo so'zlarini qo'shib chaqirish qanchalik mos bo'lar ekan? Eng yomon, insonning o'z ismini aytishga uyalishidir. Ayniqsa, bolalikda bu juda bilindi.

Bir ziyoli oila haqida eshitib qoldim. Ayolning bolasi

bir necha marta nobud bo'lgandan keyin, oxirgi tug'ilgan qiziga Mahkamto'sh deya ism berishibdi. Qiz ulg'aygach, ismidan uyalib, odamovi bo'lib qolibdi. Otasi buni fahmlab, qiziga eng yoqtirgan ismingni ayt, shuni senga beramiz debdi. Qizaloq ismi Laylo bo'lishini xohlashini aytibdi. Shundan so'ng ota hujjatlarini o'zgartirgan ekan. Mana aqlli otaning tutgan yo'li.

Dinimizni, qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni hurmat qilgan holda farzandlarimizga o'zbekona, chiroyli ismlar qo'yaylik va go'zal tarbiya beraylikki, ertaga boshqalar oldida o'z ismlaridan uyalib qolmasin.

Azzatjon AZIMOVA,
Xonqa tumanidagi
40-maktabning boshlang'ich
sinf o'qituvchisi

"Go'zal taomlanmoq ham ibodatdir"

Kitob do'konida yangi kitoblarni ko'zdan kechirar ekanman, "Taomlanish odobi" deb nomlangan kitobga ko'zim tushdi. Kishilarning turmush tarzini yaxshilashga xizmat qiladigan, hayotning asl mohiyatini ochib beradigan, umuman, kundalik hayotda kerak bo'ladigan masalalar yoritilgan kitoblarni tez-tez uchrataman. Ammo taomlanish haqida yozilgan biror kitobga ko'zim tushmagan yoki e'tibor bermagan ekanman. Sotib oldim.

Unda ko'p yemoqning ziyoni-yu, kam yemoqning foydasi, taomlanish farzlari, taom yeyishdagi 21 ta sunnat, taomlanish odobi, taom yemoqda man qilingan va makruh qilingan, riziqni ko'paytiruvchi va kamaytiruvchi, umri uzaytiruvchi amallar, shuningdek, taom va mevalarning fazilati haqida ishonchli manbalardan va hadislardan foydalanilgan holda qimmatli ma'lumotlar berilgan ekan.

Taomlanish odobiga doir ko'rsatmalar, amallar yoshi ulug'larimiz uchun begona emas. Ularning sa'y-harakatlari orqali ham ko'pi odat tusiga kirgan. Ammo bu odoblar, amallar hozir yoshlar orasida shiddat bilan yemirilib, unutilib bormoqda. Yoshlarning ko'pchiligi o'smirlik davridayoq chet ellarda, o'qishda, ishda, kundalik yumushlar sababli kun uzog'i ko'chada bo'lishlari ularni oila a'zolari davrasida ovqatlanishdan, keksalar nasihatidan uzoqlashtirib qo'yarmoqda. Aynan shu holatlar asriy qadriyatlarining unutilib ketishiga sabab bo'lmoqda.

Hammaga birdek foydasi tegadigan shu kabi kitoblarning ko'payishini istardim. Zero, odob bilan ovqatlanmoq ham ibodatdir, deydi ulug'larimiz.

Go'zal RAMAZONOVA,
Sariosiyu tumanidagi
67-maktab o'qituvchisi

Sinf rahbari kundaligidan



Gulandom darsdan so'ng ertangi rejalar ustida xotirjam ishlash uchun to'garak xonasiga yo'l oldi. Ish stoliga o'quv dasturi, darslik va tarqatmalar tayyorlash uchun narsalarni hafsala bilan terdi. Ish rejasidan ertangi dars mavzularini aniqlashtirib oldi. Ammo ruhiy horg'inlik sabab fikrlari tarqoq bo'lib, qo'li ishga bormadi.

O'quvchi sevsa, aybmi?

O'quvchi qizlari yuqori sinf bo'lgani sayin Gulandomning o'y-tashvishlari ortib borardi. Ayrim qizlarning balog'at yoshiga o'tish davri qiyin kechayotganini ularning fe'l-atvori ko'rsatib turardi. Bugun ham bir o'quvchi qizi jizzakilik bilan algebra ustoziga behurmatlik qilibdi. Ustoz(erkak ustoz) jahllandi: "Erkalatib yuborgansiz qizlaringizni! Qani edi, o'g'il bola bo'lsa-yu, bir tarsaki tortib, tanobini to'g'rilasang!" Gulandom og'irlik bilan ustozdan uzr so'radi-da, o'quvchisini darsdan olib chiqdi. Yaxshi gap-so'z bilan qizning ko'ngliga yo'l topdi. Aslida uyida akasi bilan tortishib chiqqan qizning kayfiyati dars vaqti ham shu taxlitda turganidan jahldan saphib ketganini sezmay qolgan... Kunora bo'lib turadigan bunday holatlardan ruhan charchagan Gulandom yoshi ulug' ustozlar suhbatiga borib qo'shildi. Maslahat olmoqchi bo'lib, voqeani silliqlab aytdi. Ayol ustozlardan biri voqea qahramoni qolib, yana boshqa o'quvchi qiz haqida gapirib ketdi: "O'tgan kuni Sadoqatning ko'chada Murod(bir sinf yuqori o'quvchisi) bilan birga ketayotganini ko'rdim. O'quvchilarimdan so'rasam, bir-birini yaxshi ko'rarkan. Telefonda tinimsiz gaplasharkan. Tavba, senga sevgini kim qo'yibdi? Siz-chi? Nega surishtirmaysiz? Qattiqqo'l bo'lmaysiz? Ota-onasini tartibga chaqiring, bolasiga tarbiya bersin! Maktab sha'nini ham o'ylang-da!"

Buni o'zi ham sezgandi, nima qilsin, ko'ngil qo'yish aybmi? Buning uchun jazolash kerakmi? Axir, bolalarcha muhabbatga so'z qinlik qilib bo'ladi? Sadoqatga mehr bilan tushuntirgandi. Eh, shuncha hamkasblarining oldida tanbeh eshitiishi yomon bo'ldi. Bu yerga nima dardda kelgandi... Xonaga qaytib, ishlarini bazo'r yakunladi. Ustozlarning maslahatiga kiray deb qizning onasiga qo'ng'iroq qildi, bafurja suhbatlashish uchun o'zining uyiga chaqirdi. Mahallachilik qursin, o'quvchining uyiga borsa, qo'ni-qo'shnilar degandek. Maktabga chaqirsa, o'quvchisining dili og'riydi, o'rtoqlari oldida xijolat bo'ladi.

Ona kelgach, Gulandom hol-ahvol so'rab, gapni uzoqdan boshladi. Yoshlik davrlarini bir-bir eslagan bo'lib kulishdi. So'ng gapni gapga ulab, Sadoqat shu kunlarda onaning do'stligiga chetiyov sezayotganini aytdi. Ona ham nimalardir bo'layotganini, qizning tez-tez uyga qamlib olishini aytib: "Uf, nega kuzatmadim ekan-a?" dedi. Gulandom bo'lsa, onaning yuzidagi o'zgarishni ko'rib, qayta-qayta tayinladi: "Ortiqcha gap aytmang, tanbeh bermang, dugonalarcha ko'nglini biling. To'g'ri yo'naltirsangiz, hammasi yaxshi bo'ladi".

Ertasi kuni Sadoqat maktabga kelmadi. Qayta-qayta qo'ng'iroq qildi hamki, onasi go'shakni ko'tarmadi. Gulandom xavotir ola boshladi. Oriqliqdagi darsi yo'q soatdan foydalanib, o'quvchining uyi tomon ketdi. Eshikni ochgan Sadoqat tutqichini ushlagan holda yig'lab yubordi. Qizni bag'riga bosib, hovliga kirishdi. Hamma ishga ketgan, uyda bir o'zi ekan. Bo'lgan voqeani yig'lab-yig'lab aytib berdi:

— Kechki taomga taraddudlanayotgan edim, onam yuz-ko'zi qizarib kirib keldi. Yuragim shuv etdi. Menga ko'zi tushdi-da, tezda yonimga kelib, qo'limga kapgimi olib otdi: "Yo'qol ko'zimdan, meni sharmanda qilding. Undan ko'ra, yerga kirayin edi!". Qo'rqanidan qaltirab qoldim. Rosa koyidi. Ustoz, ayting, men sevib qolib ayb ish qildimmi? Ota-onamning, ustozlarimning yuzini qora qiladigan qanday xato qildim? To'g'ri, men Murod akasi yaxshi ko'raman. Ammo bu axloqim buzildi degani emas-ku? Kimnidir qattiq hurmat qilish va unga yaqin munosabatda bo'lish qiz bola uchun mumkin emasmi? Nega bizni tushunmaydilar? Mana, maktabga ham yubormadi. Ustoz, nima qilay, ayting! Aybimni qanday yuvay?

Gulandomning yuziga ko'z yoshlari seldek oqdi, o'quvchisini bag'riga bosib:

— Qizim, sen xato ish qilmading. Hamma xatolar kattalardan o'tdi! Sevish ayb emas. Sening qalbingga yaqin borolmagan kattalarda ayb! Bolajonim, kechir meni, katta ustozlarga qarshi borolmaganim uchun, senga yaxshi bo'lsin deb onangga aytganim uchun kechir. Yig'lashib olgan "ona-bola" ancha taskin topdi, yengil tin oldi. Gulandom xotirjam bo'lsa-da, og'ir yuk bilan o'rindan turdi. Shogirdi ma'yusgina kulib, uni kuzatdi.

Azizlar, bunday voqealar sizlarga ham yot bo'lmasa kerak. Gulandomning o'rinda bo'lganigizda nima qilardingiz? Ayting-chi, o'quvchi sevsa, aybmi?

Dildor NURMUHAMMEDOVA,
Termiz shahridagi
23-maktab o'qituvchisi

Bilsang, bu ko'hna o'yinni qo'ychivon ajdodlarimiz o'ylab topishgan, bu hazil o'yinmas, bu kallasi zo'r, hisob-kitobni biladigan, fikri tozalarning o'yini.

"Kimning farzandisan, eslab ko'r! Eslab ko'r!.."

Chingiz Aytmatov

1

Abdulkarim degan fermer do'stim bor. Ko'pni ko'rgan, guringboz yigit. Davralarda tesha tegmagan gaplar, hangomalar aytib, ulfatlarini kuldirib yuradi. Kunlarning birida uni qishloq guzaridagi choyxonada uchratib qoldim.

— Qani, oshna, "yangilari"dan bormi, — dedim unga qarab.

Do'stim esa jiddiy qiyofada biroq o'ylanib, dedi:

— Ey, u gaplarni qo'ying, bugun boshqa narsa bor. Bilsang, ukam Panji Samarqanddagi shifoxonalardan birida jarroh bo'lib ishlaydi. Bir kuni Chiroqchining chekka qishlog'idan bo'lgan yigitning qo'lini yog'och kesadigan elektr arra kesib, uzib ketibdi, ukam uni operatsiya qilib tuzatgach, ustoz shunday debdi:

— Menimcha, sening ajdodlaringdan biri tabib o'tgan bo'lsa kerak...

Mehmonga borganimda, ukam bu gapni menga aytdi, rosti uyalib ketdim, chunki bobolarim kim bo'lgan, qanday yashagan bilmasdim-da...

Uyga kelib, ukamning savolini otam — Nabi muallimga berdim.

O'sha do'xtir sinchkov ekan, rostdan ham bobolarimizdan birini el-ulus Mardon siniqchi deb atagan. U kishi qo'l-oyog'i, yelkasi singan, chiqqanlarni davolagan. Ana, Bobonor akang ham siniq-mertiklarni bog'lab yuradi-ku, bu kasb bizning qonimizda bor, o'g'lim! — degandi otam rahmatli.

Kecha esa Bobonor akamdan Mardon siniqchining otasi kimligini bildim. Bosh bobomizni Alpon ponsad deb atashib, u kishi besh yuz odamga bosh bo'lgan ekan.

2

O'shanda to'rtinchi sinfda o'qirdim, bahor kunlarining birida, bobom Mahmuro'ziboy meni eshagiga mindirib dashtga, qo'ylaridan xabar olgani cho'ponlar huzuriga olib ketdi.

Bobom yo'l-yo'lakay guring berib bordi:

— Ey bolam, mana yoshim saksondan oshdi. Umr o'qar daryo ekan, oqdi, ketdi. Yaratganga shukr, mehnatim bois xor-zorlik ko'rmadim, qo'y-echki qildim, bog' yaratdim, lozim bo'lsa, savdogar ham bo'ldim, halol, to'g'ri yashadim. Farzandlarimni oyoqqa turg'azdim. Odamlarning tiliga boy bobo bo'lib tushdim.

Bilsang, bobokalonimiz Mardon siniqchining zurriyodini Xudoyberdi sarkor deb chaqirishgan. Bobomiz qavmimizni, urug'-aymog'imizni o'g'ri-qaroqchilardan, bosqinchilardan himoya qilgan. O'ziyam yovqur, chapani kishi bo'lgan.

— Xo'sh, keyingisini Xudoyberdi sarkorning o'g'li Xo'jamberdi yomg'ir-yog'di, deyishganmi, bova?

— Chunki Xo'jamberdi bobomiz katta chorvador boy bo'lgan, uyur-uyur yilqilari, qo'ylari, tuyalari bo'lgan. O'ziyam sinchkov, tadbirli kishi bo'lgan-ki, qachon qor yoki yomg'ir yog'ishini oldindan aytib bera olgan.

Kunlarning birida bobomiz chekmon,

telpak kiyib dashtga, cho'ponlari yoniga jo'nabdi va uchragan cho'pon-cho'liqlarga "tezroq qo'ylaringni qamovga haydanglar, qattiq jala yog'adi", deb aytib ketaveribdi.

Kun ochiq, quyosh charaqlab turgani sababli cho'ponlar bobomizning so'ziga parvo qilishmagan, hatto ba'zilar "boshi aylanibdi", deb kulishibdiyam.

Bobomiz esa o'ziga qarashli qo'ylarni qo'raga qamabdi. Bir zunda ufq tarafdin shamol va bulut kelib, kuchli jala yog'ibdi.

Bobomizning tezkor tadbiri tufayli qo'ylari omon qolibdi, ammo boyagi "quloqsiz" cho'ponlarning otarlari ko'p talofat ko'ribdi.

3

Bir yili xo'jalikda brigadir bo'lib ishlagan rahmatli Hakim akam o'g'liga sunnat to'y qildi. Mehmnonlar qo'noq-xonalarga joylashgach akam menga

maktab stadioniga borib kurash uchun maydon hozirlaymiz, dedi.

Akamning so'zlarini eshitgan otam dabdurdustdan:

— O'g'lim, kurash bo'lmaydi, yomg'ir yog'adi, — dedi.

Ey ota, qiziqmisiz, qarang, osmonda yulduzlar charaqlab turibdi, — deb kuldi akam.

— Aytdim-qo'ydim-da, o'g'lim.

Bilasizmi, oshna, mehmnonlar qaytib xaloyiq to'plangach, endi kurash boshlanay deb turgan mahal shag'illab yomg'ir quydi. Kurash bo'lmadi. Shalabbo bo'lib, uyga qaytdik. Otam bizni kulib qarshiladi:

— Ay bolam-a, axir men Xo'jamberdi yomg'ir-yog'dining chevarasiman, bekorga gapirmasam kerag-ov...

4

Dashtga ketayapmiz. Bobom hamon o'tgan-ketgandan guring berib bormoqda:

— Bilsang, Xo'jamberdi bobomizning zurriyodini Yusuf bo'rdoq deb aytishgan.

— Nega bo'rdoq deyishgan, bova? — so'rayman qiziqib.

— Otam zo'r chavandoz — alp bo'lgan, o'ziyam to'qqiz pud kelgan, bu bizning hisobda bir yuz qirq to'rt kilo bo'ladi.

— Nega bo'rdoq deyishgan? — so'rayman takrorlab.

— Buncha shoshqaloqsan, bizning urug'da mundayi bo'lmog'ich edi, sen qo'shtamg'ali tog'alaringga tortgansanov?..

Men jim qolaman. Bobom guringni kelgan joyidan berib boradi:

— Bir kuni otam chiyalik chorvador boy bilan sakson qo'ydan bir bo'rdoq qo'yning go'shtini yeyman deb garov boylashibdi. Garov—garov-da, ertasi-



ga qo'yni so'yib otamni chaqirishibdi. Otam o'zi bilan bir xurjun piyoz olib boribdi va davraga chappa o'tirib go'shtni olib kelinglar, deb chaqiribdi. Katta tog'orada go'shtni olib kelishibdi. Otam ortiga qaramay qo'l uzatib piyoz bilan go'shtni tanovul qila boshlabdi. Oxiri go'sht ham, piyoz ham tugabdi. Keyin

Bobom miyig'ida kuldi va chekmonning cho'ntagidan guldor xalta chiqarib, oq toshlarni to'kdi. Ular yerga to'rtbur-chakli katak chizishib xuddi shaxmat o'ynagandek toshlarni qator terib chiqishdi. Mening esa bu ajoyib o'yinni birinchi bor ko'rishim edi. O'yin ancha davom etdi, shu orada cho'pon-

Oltin Zanjir

esse

otam o'zini katta ariqdagi suvga tashlabdi va bir kecha-kunduz ariqda yotibdi. Ko'rganlar aytadi, o'shanda ariqdan suv o'rniiga moy oqqan ekan.

— Hammasini yeganmi? — deyman hovliqib.

— Ha, faqat sho'rvasi qolgan.

— Yo'g'-a!

— Ishonmasang, ishonma, — deydi bobom va eshagini qichaydi.

— Bova, siz ham bo'rdoq qo'yni yeganmisiz?

— Yo'q, men yemaganman, ammo ukam Mamatning yegani rost.

Xayolimga oshnamlar amakilarimni bo'rdoqning bolalari deb atashgani kelib jim qolaman.

— Bova, sizni odamlar tillosi bor, dermish, agar bo'lsa menga bir ko'rsating...

Bobom qovog'ini uyadi-da, deydi:

— Rost, bir zamonlar tillo ham, nuqram ham bo'lgan, so'g'in suruv-suruv qo'ylarim, yilqilarim bor edi. Barini "sho'ravoy"lar olib qo'yishdi. Ey mayli, mol-dunyo kimga vafo qilgan o'zi, ishqilib jonimiz omon qoldi, shuning o'zi katta davlat.

5

Nihoyat Fozil cho'ponning qo'shx-onasiga yetib keldik. Cho'pon kelib, bobom bilan quchoqlashib ko'rishdi. So'ng mezbon bizni supaga taklif qildi.

— Avval qo'ylarimni tuvallab kelay, keyin guring qilamiz, — dedi bobom. Suruvni aylanib, qo'ylarini sanab kelgachgina, ko'ngli joyiga tushib, supaga chiqdi.

— Hademay oshnangiz Shoymardonboy ham keladi, bir otamlashasizlar, — dedi Fozil cho'pon. — Ungacha men siz bilan bir kuch sinashib olayin, — dedi-da, qo'ynidan xalta chiqarib, bir hovuch qora toshlarni yerga to'kdi.

ning o'g'li Jovli aka dasturxon, choy va chalop keltirdi.

— "Qichab o't"ni kimdan o'rgand-ing, — so'radi bobom Fozil cho'pondan.

— Oshnangizdan o'rgandim. Hali uncha yaxshi o'ynolmayman, — javob berdi cho'pon.

— Biz tarafdin buni men bilan Asadulla maxsumdan boshqa birov bilmaydi. Bilsang, bu ko'hna o'yinni qo'ychivon ajdodlarimiz o'ylab topishgan, bu hazil o'yinmas, bu kallasi zo'r, hisob-kitobni biladigan, fikri tozalarning o'yini.

O'yin kun botguncha davom etdi, oxiri Fozil cho'ponning toshlari qamalda qoldi va ilojisiz taslim bo'ldi. Biz cho'ponnikida yotib qoldik, kechga tortib ot mingan Shoymardonboy ham keldi va uch qariya tong otguncha o'tgan-ketgandan, ajoyib-u g'aroyibotlardan, roviydan suhbat qurishdi. Men esa charchaganim sababli uxlab qolibman, ertalab choy ichgach, ortga qaytdik.

6

Abdulkarim fermer tin oldi. Mening esa suhbatdoshimning bobolari haqida anchagina xotiralarni bilishiga havasim keldi. Darhaqiqat, garchi istamasak-da umrimizning bir kun poyoni borligi ayondir. Ammo bizdan qoladigan ezgu ishlarning mangulikka daxldorligi ko'nglimizga taskin beradi. Xayolimizdan "meni ham bir kun kelib yor-birodarlarim, farzandlarim eslab yurisharmikan?", degan savol o'tadi.

Ajdodlar va avlodlarni bog'lab turgan oltin zanjir — ulug' shajara hech qachon uzilmasin, uning davomli halqalaridan siz va biz ham munosib joy olaylik.

O'rolboy QOBIL

"Ma'rifat" repetitori

Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 17-varianti

ONA TILI (7-sinf: 43 – 71 -betlar)

1. Quyidagilardan to'g'ri hukm(lar)ni toping.

1) Tilshunoslikni fan sifatida shakllantirgan qadimgi yunonlar so'zlarni otlar, fe'llar, yordamchilarga ajratgan edilar;

2) Yunonlarning tilshunoslik g'oyalari bilan oziqlangan hindlar so'zlarni uchga: ismlar, fe'llar, yordamchilarga bo'ladi;

3) Hind tilshunoslari fikrlari asosida yunon olimlari, xususan, Arastu ham so'zlarni uchga ajratadi. Keyinchalik faqat yunonlar ismlar ichidan sifat(lar)ni, son(lar)ni va olmoshlarni chiqaradilar;

4) Rus tilshunoslari mustaqil so'zlarni ot, sifat, son, olmosh, ravish va fe'lga ajratadilar;

5) Bizning ajdodlarimiz qadimdan ot, sifat, son va olmoshlarni birlashtirgan holda *ismlar* nomi bilan o'rganib kelganlar.

- A) 1, 4, 5 B) 3, 4, 5 C) 2, 3, 4 D) 1, 2, 3, 4, 5

2. Qaysi qatorda ismlarning lug'aviy shakllari to'g'ri berilgan?

- A) -im, -ing, -i, -si B) -man, -san, -miz, -siz
C) -ga, -da, -ning, -dan D) -lar, -cha, -gina, -jon

3. So'zingni qisqa qilsang, umring uzayadi.

(Yusuf Xos Hojib)

Ushbu gapda ism(lar)ning munosabat shakllari necha o'rinda qo'llangan?

- A) 3 o'rinda B) 1 o'rinda C) 5 o'rinda D) 2 o'rinda

4. "Viloyat, shahar, tuman, korxonalar, muassasa nomlarida qo'llangan III shaxs egalik qo'shimchasi shaxsga qarashlilik ma'nosini emas, balki xoslik, umundan ajratilganlik ma'nosini ifodalaydi. Shuning uchun bunday birikmalarda oldingi qism qaratqich kelishigida qo'llanilmaydi."

Ushbu qoida asosida yozilmagan birikma qaysi qatorda berilgan?

- A) Navoiy viloyati B) Orol dengizi C) Maktab bog'i D) Bobur bog'i

5. "-i, -si egalik qo'shimchasi bir qator so'zlarda qaratqich kelishigidagi so'zlar bilan bog'lanmaydi. Bunday so'zlarda ular yaxlitlanib qolgan. O'z vazifasini yo'qotgan".

Ushbu qoida asosida yozilgan so'z qaysi javobda berilgan?

- A) Bu yerlarning yozi juda so'lim.
B) Kechasi ishlaydi, kunduzi uxlaydi.
C) Sherbekning kitobi juda qiziq edi.
D) Bolakayning sumkasi eng yaqin o'rtoqqa aylandi.

6. Qaysi so'zlarga III shaxs birlik egalik shakli qo'shilganda asosdagi bir -i unlisi tushishi kuzatiladi?

- A) nok, chok, idrok B) ayir, qayir, ko'ngil
C) qorin, o'g'il, singil D) o'rtoq, taroq, o'tloq

7. Qaratqich bog'lanib kelgan so'z nima deyiladi?

- A) qaratqich B) tobe bo'lak
C) kelishik D) qaralmish

8. Ushbu rasmdagi tushunchani ifodalovchi so'zga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi qo'shilganda qanday holat kuzatiladi?

- A) tovush tushishi



- B) tovush o'zgarishi kuzatilmaydi
C) tovush almashishi
D) tovush ortishi

9. Qaysi kelishik shakli gapda doimo to'ldiruvchi vazifasida keladi?

- A) -da B) -ni C) -ga D) -dan

10. "Egalik qo'shimchasini olgan ismlarga bog'lanuvchi so'z ... kelishigi shaklida, o'timli fe'llarga bog'lanuvchi so'z ... kelishigi shaklida keladi".

Nuqtalar o'rniga mos keluvchi kelishiklar nomi ni qo'yib fikrni to'ldiring.

- A) qaratqich / tushum B) jo'nalish / tushum
C) chiqish / o'rin-payt D) tushum / qaratqich

11. Qaysi gapda sinonimi bilan almashib qo'llanganda butun-qism ma'nosini bildiragan kelishik shakli berilgan?

- A) Xushnadbek oshdan yedi.
B) Maktabning bog'i juda ko'rkam edi.
C) Sarvar maktabga bordi.
D) Sayohatchilar tog'da dam olishdi.

12. Sanalmoq so'zi qaysi gapda mustaqil so'z vazifasida kelgan?

- A) U talaba sanaladi.
B) Maktabdan qaytgach qalamlar sanaladi.
C) Toshkent shahri yurtimizning poytaxti sanaladi.
D) Navoiy ham yosh viloyatlardan sanaladi.

13. Chiqish kelishigi qaysi javobda sabab holi vazifasida kelgan?

- A) Ustozimdan fan sirlarini o'rgandim. B) Mehmonlar Farg'onadan kelishdi.
C) U alamidan yig'lab yubordi. D) Birdan eshik ochildi.

14. Ma'naviyat – ajdodlarni avlodlarga, tarixni bugunga, bugunni kelajakka bog'lovchi ko'priki. ("Ma'rifat" gazetasidan)

Ushbu gapdagi so'zlar necha xil kelishik shaklida kelgan?

- A) uch xil B) ikki xil C) to'rt xil D) besh xil

15. Kitobin varag'ini qayirib qo'ygan bola yana o'sha betdan kitob o'qiy boshladi.

Ushbu gapda qaysi kelishik(lar) belgisiz qo'llanilgan?

- A) qaratqich va tushum kelishiklari
B) qaratqich kelishigi
C) chiqish va qaratqich kelishiklari
D) tushum kelishigi

UYGA VAZIFA: Keyingi sonda 7-sinf "Ona tili" darsligidagi 72-97-betlarda berilgan mavzular asosida tuzilgan test topshiriqlari beriladi. Mazkur mavzularini qunt bilan o'qing va bilimingizni mustahkamlang.

G'anisher HAQNAZAROV,
Xatirchi tumanidagi
1-maktab o'qituvchisi

MATEMATIKA


("Ketma-ketlik, qonuniyat, mantiq, algoritm" mavzusiga oid testlar)

16. Agar sonlar qatori 2,8,26, 80, ... kabi davom etayotgan bo'lsa, keyingi hadini toping.

- A) 242 B) 125 C) 247 D) 225

17. a va b raqamlar va A natural son uchun $a5b = A$ bo'lsa, $\overline{a9b}$ ni A orqali ifodalang.

- A) A + 100 B) A + 40 C) A + 200 D) A + 400



18. Chizmadan foydalanib bo'yalgan katakchalar perimetrini toping (katakchalar kvadrat va tomoni 1 sm.ga teng)

- A) 30 sm B) 31 sm C) 29 sm D) 32 sm

19. Hisoblang: $2021 - 2019 + 2017 - 2015 + \dots + 5 - 3$

- A) 1010 B) 2022 C) 0 D) 2020

20. $a, b, c, d - a, b, c, d -$ musbat sonlar uchun $a > d$ va $b > c$ $a > d$ va $b > c$ munosabat o'rinli bo'lsa, $a \cdot b - d \cdot c$ $a \cdot b - d \cdot c$ ifodaning qiymati qanday?

- A) 0 B) musbat C) manfiy D) aniqlab bo'lmaydi

21. -8, -7, -3, 2, 4, 7 sonlar orasidan ixtiyoriy ikkitasi tanlab olindi va bir-biriga ko'paytirildi. Eng kichik son nechaga teng bo'lishi mumkin?

- A) -63 B) -54 C) -18 D) -56

22. Agar a, b, c – raqamlar bo'lsa, ko'paytirish jadvalidan foydalanib $a + b + c$ ning qiymatini toping.

| | | | |
|---|---|----|----|
| x | a | b | c |
| a | 9 | | |
| b | | 49 | 35 |

- A) 15 B) 4
C) 12 D)

23. $4 \cdot 8 < 478$ tengsizlik o'rinli bo'lishi uchun yulduzcha o'rniga qo'yish mumkin bo'lgan sonlar o'rta arifmetigini toping.

- A) 3 B) 3,5 C) 3,3 D) 4

24. Eski soat har soatda 20 soniya orqada qoladi. soat 12-00 da to'g'rilanib bir kundan so'ng qaralsa u nechani ko'rsatadi?

- A) 12:08 B) 12:02 C) 11:52 D) 11:50 E) 11:10

25. x soni shunday sonki, unga 2 ni qo'shish 3 ga ko'paytirish bilan teng. x ni 6 ga ko'paytirish, unga qanday sonni qo'shish bilan teng?

- A. 3 B.7 C.6 D.5

26. "G'jduvon" dehqon bozorida go'sht narxi 45000 so'm bo'lib, u 10 foizga qimmatlashdi. Go'sht necha so'mga qimmatlashdi?

- A) 49500 B) 4500 C) 5400 D) 40500


27. Hisoblang: $(35 \cdot 55 + 35 \cdot 45) : 70$

- A) 52 B) 50 C) 51 D) 53

28. 25,5664 sonini yuzdan birgacha aniqlikda yaxlitlang.

- A) 25,56 B) 25,57 C) 25,6 D) 25,58

29. Chizmadan foydalanib, A-B ning ishorasini aniqlang.



- A) musbat B) manfiy C) nol D) aniqlab bo'lmaydi

30. 185632, 3228965, 117354, 18975480 sonlari orasidan 6 ga qoldiqsiz bo'linadigan natural sonlarni toping.

- A) 14356, 3228965 B) 117354, 18975480
C) 143546, 117354 D) 185632, 3228965

“Ma'rifat” repetitori

Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 17-varianti

UYGA VAZIFA: Keyingi sonda “Ketma-ketlik, qonuniyat, mantiq, algoritim” mavzusi va o'tilgan mavzular bo'yicha aralash testlar beriladi, bunda testlar 5–11-sinf materiallari bo'yicha tuziladi.

Asqar AHMEDOV,
Zarafshon shahridagi
11-IDUM matematika
fani o'qituvchisi

O'ZBEKISTON TARIXI

8-sinf “O'zbekiston tarixi” darsligi umumiy mavzulari doirasidagi testlar

31. Quyidagi jadvalda nechta ma'lumot mos ravishda to'g'ri ko'rsatilgan?

| № | O'zbek davlatlari tomonidan Rossiyaga yuborilgan elchilik aloqalari | Elchilik aloqasidan erishilgan natija |
|---|---|--|
| 1 | Doniyolbiy otaliq yuborgan Ernazarbiy elchiligi | Astraxan orqali haj safariga erkin borib kelish imkoniyati |
| 2 | Amir Shohmurod yuborgan Polvonquli qurchi elchiligi | Buxoro va Eron o'rtasida urush kelib chiqqudek bo'lsa, Rossiya bilan birgalikda harakat qilish |
| 3 | Amir Haydar tomonidan yuborilgan elchilar | Savdo karvonlari qaroqchilariga qarshi birgalikda kurashish |
| 4 | Qo'qon xoni sulton Xudoyorxon tomonidan yuborilgan elchilar | Rossiyalik tog'-kon mutaxassislari Qo'qonga yuborilishi |

A) 1 ta B) 2 ta C) 3 ta D) 4 ta

32. Quyidagi asarlarni ularni yozishga topshirib bergan hukmdorlar bilan muvofiqlashtirilgan javob variantini toping.

1) “Dastur ul-amal”; 2) “Majmuaiy Shoirin”;
3) “Firdavs ul-iqbol”.

a) Xiva xoni Eltuzarxon;
b) Qo'qon xoni Umarxon;
c) Qo'qon xoni Olimxon;
d) Xiva xoni Abulg'oziyxon.

A) 1-a, 2-b, 3-d B) 1-d, 2-c, 3-a C) 1-d, 2-b, 3-a
D) 1-a, 2-c, 3-d

33. Shayboniylar (a), ashtarxoniylar (b), mang'itlar (c) davrida Xondan keyingi o'rinda turuvchi la-vozimlar qanday atalgan?

A) a-qo'shbegi, b-otaliq, c-devonbegi
B) a-devonbegi, b-otaliq, c-qo'shbegi
C) a-qo'shbegi, b-devonbegi, c-otaliq
D) a-devonbegi, b-qo'shbegi, c-otaliq

34. Quyidagi shaharlarni ular atrofini mustahkam devor bilan o'ratgan hukmdorlari bilan muvofiqlashtiring.

1) Xiva; 2) Samarqand; 3) Qo'qon.

a) Abrahimbiy; b) Amir Haydar; c) Olloh-qulixon;

d) Abdulkarimbiy; e) Amir Shohmurod;

f) Muhammad Rahimxon I.

A) 1-c, 2-e, 3-d B) 1-f, 2-e, 3-a C) 1-c, 2-b, 3-d
D) 1-f, 2-b, 3-a

35. Jadvalda harflar bilan belgilangan kataklarga mos keluvchi ma'lumotlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

| Hukmdorning otasi | Hukmdor | Hukmdordan keyin hokimiyatga kelgan shaxs |
|--------------------|---------------|---|
| a | Abulg'oziyxon | Anushaxon |
| b | Abdulkarimbiy | c |
| Muhammad Amin inoq | d | Eltuzarxon |

Ma'lumotlar: 1) Arab Muhammadxon;
2) Asfandiyorxon; 3) Abdurahimbiy;
4) Shohruxbiy; 5) Erdonabiy; 6) Norbo'tabiy;
7) Muhammad Rahimxon I;
8) Avaz Muhammad inoq.

A) a-2, b-3, c-5, d-8 B) a-2, b-4, c-6, d-7
C) a-1, b-4, c-5, d-8 D) a-1, b-4, c-6, d-7

36. Quyidagi miniaturada tasvirlangan Buxoro hukmdori bilan bog'liq to'g'ri ma'lumotni belgilang.

A) 1583-yilda rasman xon deb e'lon qilingan
B) she'rilarida Samarqandni Ka'ba-ga,
Buxoroni jannatga qiyoslagan
C) 1507-yilda pul islohoti o'tkazgan
D) Buxoro xonligiga asos solgan



37. Quyidagi qaysi asar o'z ichiga nisbatan ko'p davrni qamrab oladi?

A) “Shayboniynoma” (Kamoliddin Binoiy)
B) “Shayboniynoma” (Muhammad Solih)
C) “Habib us-suyar” (Xondamir)
D) “Abdullanoma” (Hofiz Tanish al-Buxoriy)

38. Buxoro xonligidan mustaqil, poytaxti Samarqand bo'lgan davlat tuzilgan yilda sodir bo'lgan voqeani toping.

A) Asfandiyorxon Abbos I yordamida Xiva taxtini egalladi
B) Xiva xoni Sherg'oziyxonning hukmronlik davri tugadi
C) Rossiya hukumati Buxoro xonligiga Florio Beneveni boshchiligida elchi yubordi
D) Jung'orlar bostirib kelib, Sirdaryoning o'rta qismini egallagach, qoraqalpoqlar ko'chishga majbur bo'ldi

39. Quyidagi ma'lumotlardan nechtasi to'g'ri?

1) XVII asrda O'rta Osiyo va Rossiya o'rtasida tovar ayirboshlash 100 000 rublni tashkil etgan;
2) Buxoro amirligida talabalarga vaqf daromadi hisobidan nafaqa puli joriy etilgan edi;
3) shayboniylar davri madrasa tizimida fiqh (huquq) fanini o'rganish majburiy hisoblangan;
4) 1864-yilda O'rta Osiyo – Rossiya tashqi savdosida Buxoro amirligining ulushi 42 % ni tashkil etgan; 5) Shayboniylar davrida Samarqandda Shayboniixon, Toshkentda Baroqxon va Qulbobo Ko'kaldosh madrasalari barpo etilgan.

A) 2 tasi B) 3 tasi C) 4 tasi D) 5 tasi

40. Shaharlar bilan bog'liq noto'g'ri ma'lumotni aniqlang.

A) 2009-yilda turli davrlarda “Choch”, “Shosh”,

“Binkat” nomlari bilan atalgan Toshkent shahrining 2200 yilligi nishonlandi

B) 1997-yilda Jahon madaniyatining durdonalaridan hisoblangan Xiva va Buxoro shaharlarining 2500 yilligi Parijda keng nishonlandi

C) 2003-yilda Nukus shahrining 70 yilligi nishonlandi va shahar “Do'stlik” ordeni bilan mukofotlandi

D) 2007-yilda “Dunyoning jannati” deya ulug'langan Samarqand shahrining 2750 yilligi nishonlandi

41. Amir Haydar davrida qaysi hududlar aholisi qo'zg'olon ko'targan?

1) Marv; 2) Hiro; 3) Miyonqol; 4) Ko'lob; 5) Balx.

A) 4, 5 B) 1, 2, 4, 5 C) 2, 3, 4 D) 1, 3

42. Quyida keltirilgan shaharlar aholisi sonini toping.

1. XIX asrda Qo'qon shahrida ... aholi yashagan;
2. XIX asrning 40-yillarida Xiva shahrida ... dan ortiq aholi yashagan;

3. XIX asrda Samarqand shahrida aholi soni ... ga yetdi;

4. XIX asrda Buxoro shahrida ... ga yaqin aholi yashagan.

a) 30 ming; b) 25–30 ming;
c) 20 ming; d) 60 ming.

A) 1-a, 2-c, 3-b, 4-d B) 1-c, 2-a, 3-b, 4-d
C) 1-c, 2-b, 3-a, 4-d D) 1-a, 2-c, 3-d, 4-b

43. Rossiya qozoqlarining Kichik Juz xonligini o'ziga bo'ysundirgan yilda Buxoro, Xiva, Qo'qon hukmdorlari kimlar edi?

A) Abulfayzxon / Elbarsxon / Abdulkarimbiy
B) Abulfayzxon / Sherg'ozixon / Abdurahimbiy
C) Amir Haydar / Muhammad Rahimxon I / Madalixon
D) Amir Haydar / Muhammad Rahimxon I / Umarxon

44. Qo'qon xonligi maktabxonalarida ... o'quvchi “xati chiqqan” hisoblangan.

A) kalimayi shahodat va toyibani yod olgan
B) “Haftiyak”ni to'liq o'rgangan
C) duoyi salomni yoza olgan
D) Qur'oni karimni qiynalmay o'qiy olgan

45. Nuqtalar o'rniga mos keluvchi sonlarni toping.
1) Buxoro xonligi shaharlarida ... dan ortiq madrasa bo'lgan;

2) Samarqand shahrida ... dan ortiq madrasa bo'lgan;

3) XIX asr boshlarida Buxoro shahrida ... ta madrasa bo'lgan;

4) XIX asrda Xiva xonligida ... ta madrasa bo'lgan;

5) Qo'qon xonligining Qo'qon shahrida ... ta madrasa bo'lgan;

6) Qo'qon xonligining Marg'ilon shahrida ... ta madrasa bo'lgan.

A) 100 / 100 / 150 / 105 / 120 / 80
B) 150 / 80 / 60 / 105 / 111 / 40
C) 150 / 100 / 60 / 103 / 40 / 10
D) 100 / 80 / 40 / 103 / 120 / 80

Jalol BOLTAYEV,
Urganch davlat universiteti talabasi,
repetitor

| ONATILI | | | | | | | | | | | | | | |
|--------------------|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 |
| B | D | A | C | B | C | D | C | B | A | A | B | C | A | D |
| MATEMATIKA | | | | | | | | | | | | | | |
| 16 | 17 | 18 | 19 | 20 | 21 | 22 | 23 | 24 | 25 | 26 | 27 | 28 | 29 | 30 |
| A | B | A | A | B | D | A | C | D | B | B | B | B | B | B |
| O'ZBEKISTON TARIXI | | | | | | | | | | | | | | |
| 31 | 32 | 33 | 34 | 35 | 36 | 37 | 38 | 39 | 40 | 41 | 42 | 43 | 44 | 45 |
| B | C | B | C | C | A | D | D | B | D | D | A | C | C | C |

Ilmga intiluvchi qadrlanishi kerak!

2020-yil 23-sentabrda "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri qabul qilinib, unda fuqarolarning zamonaviy bilim olish huquqi yanada mustahkamlangan. Qonunda kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy shakllarda ta'lim olishni tashkil etish imkoniyatlari berilgan. Shuningdek, ilm olishga keng imkoniyatlar yaratish maqsadida iqtidorli bolalar uchun Prezident maktablari, Ijod maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlar tashkil etishning huquqiy asoslari yaratilgan.

Qonunda, shuningdek, tarbiya va ta'limga alohida ta'rif berilgan.

Tarbiya - aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon.

Ta'lim - ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek, ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon.

Bu ta'riflardan ta'lim va tarbiya bir-biri bilan chambarchas bog'langan jarayon ekanligi ko'rinadi. Tarbiyalangan bolaga ta'lim berish oson, tarbiyalanmagan bolaga esa ta'lim berish mushkuldir.

"Agar sen ilm uchun bor-yo'g'ingni bermasang, ilm ham sen uchun biror narsa bermaydi", degan hikmatli gap ham bor. Ming afsuski, bugungi kunda ilm uchun bor-yo'g'ini beradigan insonlar barmoq bilan sanarli. Tabiiyki, hamma o'z tirikchiligini o'ylaydi, baxtli va

farovon, to'kin-sochinchilikda yashashni xohlaydi. Va shu yo'lda o'z faoliyatini olib boradi. Uyda farzandlari och-nochor bo'lgan qaysi odamga ilm izlash yoqadi deb o'ylaysiz. Yoqmaydi, albatta! U ham farzandlarining qornini to'yg'azish uchun to'qqa o'tin terгани chiqib ketadi yoki mol boqishni afzal ko'radi. O'z-o'zidan ko'rinadiki, ilmiy ish qilishga qobiliyati va ishtiyoqi bor yoshlarimizni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashimiz juda ham zarur. O'sha iqtidorli yosh kadrlar o'z ilmi orqasidan umrining oxirigacha baxtli-saodatli yashashiga ishonchi bo'lishi kerak.

Hozirgi kunda esa boy-badavlat yashayotgan odamlarning ayrimlari o'z ilmiy halol mehnati orqasidan emas, balki tilgirli, tilyog'lamaligi, tovlamachiligi, laganbardorligi va aldanchiligi natijasida boyiganligini ko'rishimiz mumkin. "Sen odam bo'lmasan!" deb o'qitgan o'quvchimiz qimmatbaho mashina minib yursa-yu, maktabda va oliy ta'lim muassasasida a'lo baholarga o'qigan shogirdingiz taksida, piyoda yursa yoki o'sha

o'quvchimiz qimmatbaho mashinasida signal berib o'tsa-yu, siz velosipedda yoki piyoda yurgan bo'lsangiz, ilm olishga kimda ham ishtiyoq bo'lardi?!

Albatta, hammaning ham ilm olishga iqtidori va iste'dodi bo'lmasligi mumkin, ammo ularda kasb-hunar sirlarini egalashga qiziqish bo'ladi. Hamma kasbning ham o'z ilmi bor. Oddiygina dehqonchilikning ham, chorvachilikning ham, duradgorlikning ham, mashina ta'mirlashning ham, sotuvchilikning ham, oshpazligi-tikuvchilikning ham o'z ilmi bor. Ana shu ilmlarni mukammal egallagan inson xor bo'lmaydi, hayotda o'z o'rnini albatta topadi, baxtli-saodatli yashaydi. Agarki, farzandlarimizni yoshligidan ilm olishga ishtiyoq ruhida tarbiyalamas ekanmiz, ko'zlangan natijaga erishmog'imiz mushkuldir.

Bolaning aql-u ongi yoshligida unchalik rivojlanmagan bo'ladi. Shu sababli bola o'zi anglamagan holda tarbiyani o'zlashtirib oladi, ya'ni biz bolaga shaxsiy namuna orqali tarbiya beramiz. Pedagog-psixologlarning tadqiqotlariga ko'ra, bola 5-6 yoshgacha ong ostida to'liq tarbiyalangan bo'ladi, keyingi ongli tarbiya esa mavjud tarbiyani sayqallaydi, mustahkamlaydi, xolos. Shu sababli oila - bu tarbiyaning asosiy o'chog'i ekanligini va oila tarbiyasiga alohida e'tibor qaratishimiz zarurligini anglashimiz kerak. Bugungi kunda oiladan tashqari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham farzandlarimizga 2 yoshdan 7 yoshgacha tarbiya bilan birga ta'lim ham berilayotganligi diqqatga sazovordir. Ya'ni, oilada

tarbiyaga yetarlicha e'tibor berilmayotgan bo'lsa, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiya to'laonli berilishi zarur.

"Ilm istab o'tkazilgan bir soat tun bo'yi ibodat qilishdan yaxshiroqdir. Ilm istab o'tkazilgan bir kun uch yor to'za tushidan afzaldir", degan hadis shariif ham mavjud. Bu hadisda ilm olish to'at-ibodatdan afzaldir, deyilyapti. Hozirgi vaqtda ilm olish pallasida faqatgina to'at-ibodatga berilib qolgan yoshlarimiz ham uchramoqda. Hazrat Bahouddin Naqshband o'z ta'limotida "Dil ba yoru, dast ba kor", ya'ni "Diling Ollohda-yu, qo'ling halol mehnatda bo'lsin", deb da'vat qilganlar. Xoja Ahmad Yassaviy hazratlari esa, inson komillikka yetishishi uchun tariqat, shariat, ma'rifat va haqiqat yo'llarini bosib o'tishi, ya'ni tariqat va shariat ilmini o'rganishi, ma'rifat tarqatishi, halol mehnat qilishi va haqiqatni qaror toptirishi orqali amalga oshirilishi zarurligini ta'kidlaydilar.

Hadisu sharifda "Beshikdan to'qabrgacha ilm izla" deb buyurilgan. "Odamlar o'qishdan to'xtashi bilan fikrlashdan ham to'xtaydilar", degan ekan fransuz yozuvchisi va faylasufi Deni Didro.

Biz ziyolilar o'qishdan, o'rganishdan bir daqiqqa ham to'xtamasligimiz, ilmlarimizni boyitib borishimiz, zamonaviy bilimlarni ham egallab borishimiz va o'z navbatida o'rgananlarimizni ilm istovchilarga o'rgatib borishimiz ham qarz, ham farzdir.

Nurxon BEKNIYOZOV,
Davlat test markazi
Navoiy viloyati bo'limi boshlig'i

Ehtimom

Mening ustozim — nurli inson

Ustozlik - halovat-u oromlardan kechmoq, ziyo bo'lib shogirdlar yo'lini yoritmoq va buni umrning mazmuni deb bilmok, aslida...

Har tong ona maktabim tomon talpinar ekanman, yuragim cheksiz hayajonga to'ladi. Ich-ichimdan his etamanki, bu maskanda meni bilimga tashna, intizor qalblar kutmoqda. Quvonchdan porlagan ko'zlarga boqib, baxtli lahzalar og'ushida shunday degim keladi: "Men o'qituvchiman va bundan faxrlanaman!" Tizginsiz xayollarim menda ustozlik kasbiga mehr uyg'otgan fidoyi inson tomon parvoz etadi...

O'shanda endigina 5-sinfga qadam qo'ygan edik... Maktabimizda matematika fani bo'yicha ixtisoslashtirilgan sinf tashkil etilib, unga tumanimizdagi barcha ilm dargohlaridan zukko o'quvchilar saralab olindi. Bizning sinfdagi qobiliyatli o'quvchilardan ham sinov olindi. Ammo hamma baholarim a'lo bo'lsa-da, negadir men taklif etilmadim... (sinf rahbarimning o'yimga tushuntirishicha, sinfdayam yaxshi o'quvchilar qolishi kerak ekan).

Xullas, oyimning arizasi bilan men ham imtihon topshirdim


va iqtidorlilar safiga qo'shildim. Yangi sinfdagi ilk matematika darsi... Bu men uchun chinakam hayot darsi bo'ldi... Eshikdan kirib kelgan o'ktam, salobatli, chehrasidan nur yog'ilib turgan ustozimiz Bekniyozov Nurxon zukkolik bilan mavzuni tushuntirdi. O'rganilgan mavzu bo'yicha misollarni yechib, daftarimni tekshirtirgani olib bordim. Ustoz daftarimni sinchiklab tekshirdi-da, menga qarab: "Shunday bilimli o'quvchimiz sal bo'lmasa boshqa sinfdan qolib ketarkan-a?!" dedi. Sof samimiyatga yo'g'rilgan bu so'zlar menga bildirilgan ishonch, katta tanlovlarda o'z zimni sinab ko'rish uchun jur'at, shu bilan birga, mas'uliyat edi... Balkim bola qalbm bu so'zlar quadratini o'sha damda his etmagandir, biroq yillar o'tgani sayin bu e'tibor yuksak maqsadlar sari yetakladi...

Shu tariqa biz, sinfdagi 16 o'quvchi, matematika darsini, bilimdon-u hozirjavobligi bilan mehrimizni qozongan ustozimizni intizorlik bilan kutadigan bo'ldik. Nurxon aka har

gal yangi mavzuni juda qulay va qiziqarli usullar bilan tushuntirar, dars davomida ulug' ajdodlarimizning ilm-fanga qo'shgan hissasi haqida so'zlab berardi. Ibratli rivoyat-u hikoyatlar orqali qalbimizga ezgu fazilatlar urug'ini qadardi. O'qituvchimiz nafaqat o'z fanining mohir ustasi, balki hayot, odamiylik, tarbiya fanlarining ham yetuk bilimdoni ekan. Hozirgi zamonaviy pedagogdan talab qilinayotgan barcha fazilat-u mahorat o'sha davrdayoq ustozimizda mujassam edi. Ustozim bizga hayot sinovlariga tik boqishni, yuksak marralar sari mardona borishni, asosiysi, olijanoblikni o'rgatdi. Mening fan olimpiadalari va boshqa turli tanlovlarda faxrlar o'rinlarni olishimda, nufuzli institut talabasi bo'lishimda, qolaversa, bugun jamiyatimizda o'qituvchi sifatida o'z kasbimdan sharaf topishimda ustozimning xizmatlari beqiyos! Jumladan, men ham ustozimga havas qilib, u kishiga o'xshagim kelib, o'qituvchilik kasbini tanlaganman. Hali-hanuz ustozimning o'gitlari, yo'l-yo'riqlari, maslahatlari men uchun misoli yo'llarimni yoritguvchi mayoqdir!

Nurxon aka Navoiy viloyatida xalq ta'limi va ijtimoiy hayot rivoji uchun turli sohalarida faoliyat olib bordi. Navoiy tumanidagi 5-maktabda o'qituvchi, viloyat xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish instituti kabinet mudiri, viloyat xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari, viloyat hokimligi devoni ijtimoiy masalalar majmuyi kotibiyati mudiri, viloyat xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish instituti prorektori lavozimlarida mas'uliyat bilan ishladi. 2004-yildan hozirgi kunga qadar Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazining Navoiy viloyati bo'limi boshlig'i sifatida faoliyat yuritmoqda. Fidoyi ustoz qaysi sohada ishlamasin, hamisha el-yurt xizmatida bo'lib, xalq dardi bilan yonib yashadi.

Xalqqa ziyo ulashishni oliy maqsadi deb bilgan Nurxon Bekniyozov "Karmana — qadimiy diyor" (2007-yil, A.Hotamov bilan hammualliflikda), "Rahbar ma'naviyati, madaniyati va mahorati" (2013-yil), "Oila, tarbiya, ma'naviyat" (2013-yil), "Karmananing yetti piri" (2017-yil, F.Mardonov bilan hammualliflikda) kabi o'nlab kitoblari muallifi



fidir. Ayniqsa, ustozning 2016-yili nashr etilgan "O'qituvchi nimalarni bilishi kerak?" o'quv-metodik qo'llanmasi nafaqat izlanuvchan, ijodkor o'qituvchilar, balki yosh mutaxassislar uchun ham muhim dasturilamal bo'lib kelmoqda.

Nurxon Bekniyozov shu yil 60 yoshni qarshi olmoqda. Men uchun judayam qadrlil, doimo el xizmatiga kamarbasta ustozim! Faqatgina ezguliklarga baxshida bo'lgan qutlug' yoshingiz muborak bo'lsin! Sizga mustahkam sog'liq, mazmunli umr, dunyodagi jamiki ezgu tilaklarni tilayman. Hamisha farzandlar va shogirdlaringiz ardog'ida yuring! Baxtimizga hamisha omon bo'ling!

Komila RAJABOVA,
Navoiy shahridagi
11-IDUM o'qituvchisi

Yong'in chiqqanida nima qilish kerak?

Q Poytaxtimizda ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmogda. O'nlab muassasalar, korxonalar va tashkilotlar binolari zamon andozalariga mos ravishda qurildi, qayta ta'mirlandi. Turarjoylar, mavzalar barpo etildi. Savdo-sanoat tarmoqlari rivojlanyapti. Ana shu beqiyos mehnat mahsullarini yong'in ofatlaridan muhofaza etish bo'yicha Mirotbod tumani favqulodda vaziyatlar bo'limi xodimlari ham qator tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda.

Tuman hududida qurilish va kapital ta'mirlash ishlari olib borilayotgan maskanlarda o'tkazilgan o'rganishlar jarayonida Favqulodda vaziyatlar bo'limi xodimlari obyektlarni yong'in o'chirish texnikasi bilan ta'minlash masalasi, yong'iniga qarshi suv manbalari tashkil etilgani, tashqi yong'in o'chirish yer osti gidrantlari, ichki yong'in o'chirish kranlari va ulardagi suv bosimini ko'tarish uchun yong'iniga qarshi nasoslar, yong'in o'chirish va yong'indan xabar berish moslamalariga alohida e'tibor qaratmoqda.

Ob-havoning keskin sovishi xizmat xodimlarini xavotirga solishi tabiiy. Fursatdan foydalanib, yong'in chiqishining oldini olish maqsadida qurilish ishlari olib borilayotgan maskanlarga aloqador barcha mansabdor shaxslar, pudrat tashkilotlarining rahbarlari, qurilish rahbarlari, buyurtmachilar, quruvchilardan yong'in xavfsizligi qoidalarga amal qilishni so'rab qo'lamiz:

- yotoq vagonlarida qo'lbola va nostandart elektr isitish asboblari-dan foydalanmang;
- tarmoqqa ulangan elektr asboblarni nazoratsiz qoldirmang;
- bino va imoratlarining ichida ochiq olovdan foydalanmang;
- payvandlash va boshqa olovli ishlarni olib borish uchun faqat ixtisoslik guvohnomasiga ega bo'lgan shaxslarni jalb qiling;
- nosoz yoki izolyatsiyasi buzilgan sim va kabellardan foydalanmang;

- isitish yoki quritish uchun standartga mos bo'lmagan (qo'lda yasalgan) elektr asboblarni ishlatmang;

- elektr simlari va kabellarining izolyatsiya qilinmagan uchlarini kuchlanish ostida qoldirmang;

- elektr simlarining metall konstruksiyalarga tegib ketishiga yo'l qo'ymang;

- kuchlanish ostida bo'lgan elektr asbob-uskunalarni qarovsiz qoldirmang;

- stasionar yoritgichlarni ko'chma qo'l chiroqlari sifatida ishlatmang;

- nosoz rozetka, rubilnik, tarmoqlantirish qutilari va boshqa elektr asboblardan foydalanmang;

- rolik, vklyuchatel, rozetkalariga kiyim-bosh ilmang;

- elektr chiroqlarni qog'oz, mato, boshqa yonib ketadigan narsalar bilan o'rab qo'ymang;

- chiroqlarni yonuvchan va yonishi qiyin bo'lgan buyumlarga 0,5 metrdan yaqinroq qo'ymang;

- elektr tarmoqlari uchun telefon va radio simlarini ishlatmang;

- elektr himoya uchun yagona o'lchamga keltirilmagan, qo'lda yasalgan himoyalagichdan foydalanmang;

- elektr uskuna va elektr asboblarni elektr himoya apparatlarisiz ulamang;

- elektr tarmoqlari va elektr simlarini yonuvchan material bilan qoplangan tom, bostirma, taxlangan materiallar ustidan o'tkazmang;

- gaz payvand ishlarini bajarishda nosoz uskunalarni ishlatmang;

- yangi bo'yalgan, bo'yog'i to'liq qurimagan konstruksiyalarni payvand qilmang;

- payvandlash elektr kabeli yuqori bosimdagi gaz ballonlariga tegib ketishiga yo'l qo'ymang;

- yonuvchan va tez alangalanadigan gaz va suyuqliklar saqlangan sistema, bak, rezervuarlarni yuvib, bug'lanmasdan turib ochiq olovda isitmang, kesmang va payvand qilmang;

- yopiq xona va sig'imlar ichida bir paytda gaz payvandchi va elektr payvandchilarni ishlatmang.

Qurilishda ishlaydigan har bir odam yong'in chiqqan holda quyidagi ishlarni bajarishi kerak:

- zudlik bilan yong'in xavfsizligi qismiga xabar berishi, mahalliy yong'in o'chirish xizmati va ko'ngilli yong'in o'chirish drijinasiga tashvish (trevoga) signalini chalishi;

- odamlarni evakuatsiya qilish va moddiy boyliklarni qutqarish choralarni ko'rishi;

- xavfsizlik qoidalarga amal qilgan holda qo'l ostidagi vositalar yordamida o't o'chirishni boshlashi;

- yetib kelgan yong'in o'chirish bo'limlarini kutib olishi, ularga yong'in chiqqan joy va qurilayotgan binoda bo'lgan odamlar soni, yong'iniga xavfli modda va materiallar to'g'risida axborot berishi kerak.

G'ayrat ESHONOV,

Mirotbod tumani Favqulodda vaziyatlar bo'limi boshlig'i, polkovnik,

Komil QODIROV,

Mirotbod tumani Favqulodda vaziyatlar bo'limining Normativ-texnik bo'linmasi boshlig'i, katta leytenant

Eshitish imkoniyati cheklangan bola bog'cha yoki maktabga borgan paytdan boshlab moslashuv jarayonida qiyinchiliklarga duch keladi.

Ko'pgina hollarda bolalarda eshitmaslik oqibatida nutqning umuman rivojlanmaganligi, mayda qo'l motorikasining yaxshi rivojlanmasligi sababli bilish jarayonlarining yetarli darajada bo'lmashligi, ijtimoiy moslashuvning shakllanmaganligi ta'lim jarayonida qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Korreksion rivojlantiruvchi mashg'ulotlar

Bunday bolalarning maktabga moslashuvini ta'minlashda qator talablarni bajarish kerak. Bu maktabga qabul qilingan bolalardan ko'p mehnat va iroda talab etadi. Shu bilan bir qatorda maktab amaliyotchi psixologi va sinf rahbari, tarbiyachilari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Bunda bolalarning maktab sharoitiga moslashish jarayoni o'rganish muhim sanaladi.

Korreksion rivojlantiruvchi mashg'ulotlar eshitish imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim olishlarida uchraydigan muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Shu maqsadda tayyorlangan mashg'ulotlardan birini ko'rib chiqamiz.

1-mashg'ulot

"To'rtinchi ortiqcha" o'yini

Bu o'yin orqali bolaning mantiqiy taffakkuri rivojlanadi. Mustaqil fikrlashga, o'z fikrini mustaqil bayon qilishga o'rganadi. Lug'at boyligi oshadi.

O'yin sharti quyidagicha: o'qituvchi, tarbiyachi yoki ruhshunos bolaga bir guruhga oid 3 ta va boshqa guruhga oid 1 ta rasmi ko'rsatadi. Boladan bir guruhga oid rasmlarning umumlashtiruvchi nomi so'raladi. Masalan pomidor, sabzi, kartoshka, olma rasmlari ko'rsatilib, nima ortiqcha ekanligi so'raladi. Bola rasmlarga qarab, pomidor, sabzi, kartoshka sabzavotlar guruhiga oidligi, olma bu yerda ortiqcha ekanligini izohlab aytib berishi kerak. Bu o'yin orqali bola fikrini mustaqil bayon qilishga o'rganadi. Bu o'yindan individual hamda frontal mashg'ulotlarda ham foydalanish mumkin.

Mashg'ulotlar, o'yinlar yordamida eshitish imkoniyati cheklangan bolalarning bilishga doir psixik jarayonlari: diqqat, tafakkur, idrok, tasavvur, xotira, shuningdek, mayda qo'l motorikasini rivojlantirish orqali tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, muloqot orqali o'qish, yozish malaka va ko'nikmalari rivojlanib borishi ta'minlanadi.

Nargiza NUROVA,

Karmana tumanidagi

25-ixtisoslashtirilgan maktab-internet eshitishni taraqqiy ettirish fani o'qituvchisi

Do'smatov Ravshan Komiljonovichning 05.05.02 — Elektrotexnika. Elektroenergetik stansiyalar, tizimlar. Elektrotexnik komplekslar (texnika fanlari) ixtisosligi bo'yicha "Chastotaviy rostanuvchi asinxron elektr yuritma asosida yuqori kuchlanishli nasos qurilmasining energiya samaradorligini oshirish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.T.03.03 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 29-yanvar kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Tel/faks: (71)227-10-32; e-mail: tadqiqotchi@tdtu.uz

Akromov Ulug'bek Sharobiddinovichning 10.00.04 — Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti ixtisosligi bo'yicha "J.-M. Gyustav Le Klezio asarlari poetikasi" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 4-fevral kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21- "a" uy.

Tel/faks: (71) 230-12-91; 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru

Qodirova Fazilat Shukurovnaning 10.00.06 — Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishirma tilshunoslik va tarjimonshunoslik ixtisosligi bo'yicha "Ingliz va o'zbek tillaridagi tasviriy san'at va dizaynga oid terminlarning lingvokulturologik xususiyatlari" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 4-fevral kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21- "a" uy. Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru

Xamidullayev Toxir Xamidulla o'g'lining 06.01.05 — Seleksiya va urug'chilik ixtisosligi bo'yicha "Ekologo-geografik uzoq duragaylash asosida g'o'za seleksiyasi uchun boshlang'ich ashyo yaratish" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/30.12.2019.Qx.13.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 28-yanvar kuni soat 13:30 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60; e-mail: tuag_info@edu.uz

Toshkent davlat agrar universiteti jamoasi O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, O'zbekiston qishloq xo'jaligi fanlari akademiyasining muxbir a'zosi, qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Ubaydulla NOSIROVning

vafoti munosabati bilan oila a'zolariga ta'ziya izhor qiladi.

Izoh: O'tkazilayotgan himoyalar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markazning <http://himoya.bimm.uz> platformasi va ZOOM dasturi orqali onlayn (masofaviy) tarzda amalga oshiriladi.

Ko'ngil bitiklari

Seni kulib-kulib yashadim

"KICHKINA SHAHZODA"GA

Qalbimda yulduzdek yongansan,
Zulmatda ziyolar solgansan,
Ko'rinmas dunyoni bilgansan,
Shahzodam!
Ezgulik nurimi, omading,
Ilindim: nimadir — olmadim,
Oh, bizning "Yer"larda qolmadim,
Shahzodam!
Kichigim, mitticham deyinmi,
Taqdirning ishlari o'yinmi?
Insonlik mazhabi qiyinmi?
Shahzodam!
Izlaring poylasam, ko'p ma'ni,
Yulduzdan tushdingmi, kel, qani,
Yaxshilik kuyini chal, qani,
Shahzodam!
Kattalar g'alati xalq ekan,
Bolalar baribir mard ekan,
Yuragi qo'shiqqa g'arq ekan,
Shahzodam!
Sog'insam qo'ng'iroq dilingni,
Quyoshga qarab sol yo'lingni,
Asrayman feruza gulingni,
Shahzodam!
"G'urub"ni sevganman dilginam,
O'ynasang, qilmayman men gina,
Mavjlarim sen uchun ... Kichkina
Shahzodam!

Kel, tarix varaqlab olaylik bir zum,
Yurtim, qahramoning nolasini ko'r.
Agar ishonmasang, tengdoshim bugun
Ko'kda guvoh ana — yulduzlardan so'r!
Kel, o'tmish sirlarin o'qiyimiz dilda,
Azizim, do'stginam, dardni tuyaylik.
Shubhalar kirganda ajib ko'ngilga,
Buyuk bobolardan so'rab ko'raylik.
Kelajak kitobin yozaylik bugun,
Toki tinchlik bizda abadiy qolsin.
Tengdoshim, halovat topgan yuraging,
Faqat Vatan deya,
Xalq deya yonsin!

Ko'zlarining kanorasida
Nurlar borday...
Oydan-da yorug'
So'zlarida ming ohang dunyo
Nechun urar yuraklarga tig'?'
Asirmishsan ishqqa...
Dilyorga,
Yetmoq uchun balki chin Yorga.
Uning vaslin ko'rmoqlik uchun
Mashrabdayin osilsang dorga...

Shunda hamki nolang bo'lmay kam
Dashtda qaro kechmishing unsa,
Yo'q-yo'q,
Majnundayin devona bo'lmay
Dildan og'ir,
Og'irroq so'nsang...
So'nsang...
Ko'ksingda bir otash qiynasa,
Ishqdek buyuk dardni tuyolsang.
Ikki dunyo talosimada
Eng buyukroq baxtni tuyolsang.
Ishqni qilmay shunda ham ta'na,
Tashlab ketib bilsang dunyoni.
O'tinaman...
Eng so'nggi damda
Rahmi kelsin senga Xudoning...

Tun.
Og'riqlarga bir hikmat soldi,
zangori tuyg'ular bosdi ko'zimdan...
Kechadan yolg'iz bir nadomat qoldi,
gunohlar to'kilib ketdi so'zimdan...
Tun. Yechilib ketolmay ochilmas tugun,
Dilimning qulfiga tusholmay kalit.
Chopib borayapman, yorisharmi deb
Qaniydi, har kunim bo'lsaydi Hayit!
Ko'kning otashiga sochilar yulduz,
orzular, umidlar yoqib gulxanin.
O'rtoqjon, mening ham yuragimda muz,
Eritib yuborgin kuduratlarin.
Toki orom topsin bu telba yurak,
Xasta tabiatning kuymasin joni.
Har kun bayram bo'lsa, tantana bo'lsa,
Sharqda hukm qilsa do'stlik farmoni!

Muzaffargul ko'tarib kelsang...
Tongda menga qo'shiqlar aytib.
Diydorguling sog'inganman men,
Uni ham ol, ortingga qaytib.
Bu gullarki, bari sehrli,
Hammasidan sehrli o'zing.
Oppoq-oppoq muzaffargullar
Sening so'zing...
Bu sening so'zing...
Shodlingga ko'milib ketsam,
Gulni sevsam...
Seni suydiram.
Iltimosim, jonim, manguik —
Baxt gullarin ko'proq keltirsang!!!

RO'MOL

Tushlarimga kiradi bobom,
Ishqing baland, deydidam she'rga.
Bir o'gitim: unutmam har on,
Ro'molingni tashlama yerga!

Bolaligim ketmaydi, yoshman,
O'yin-kulgi chorlar sehriga.
Otam kelib urishar: "Shoshma!
Ro'molingni tashlama yerga!"
Xayolimdan ketmas oshiqlar,
"O'tkan kun"ni olaman qo'lga.
Kumush kelar shivirlab sekin:
"Ro'molingni tashlama yerga!"
Goh Ra'nolar o'qiydi ash'or,
Munosib kim g'azalga, kuyga.
Tark qilma der, o'zbekliging bor,
Ro'molingni tashlama yerga.
Endi gullar yoshiga yetdim,
havas bilan boqaman dilga.
She'rlarimni onam deb bitdim,
Ro'molimni tashlamay yerga.
Shu so'z taftin tuydim necha bor,
aytgim kelar har o'zbek qizga.
Yo'qolmasin,
Hayo, nomus, or,
Ro'molingiz tashlamang yerga!

Olam shunday kengayib ketdi,
Ildiz otib gullamoqda dil.
Borayotgan yo'lagimgacha,
Bari-bari senikidir bil...
Ey, odamning sarvari, naqshi,
Siyratinga chizilgan timsol.
Ko'rayotgan har bir zarracham
Go'yo u ham seniki misol.
Menda ne bor... Barchasi sirli,
To'fonlarim sarhadsiz daryo.
Sehrgarlar ichra sehrli
Orolingma aylangansan yo.
Odam ichra topganimsan sen,
Qidirmasman boshqa olamni.
Hatto tushda yo'qotib qo'ysam
Kechirmagin menday sanamni...
Kechirmagin menday sanamni!

Ko'zingdan o'zimni axtarib turib,
Halovat qolmadi ko'ngil go'shamda.
Kuldim...
Baxtli dilni ko'tarib yurib...
Baxt deya atadim seni o'shanda...
Kuldim...
Kulaverdim, dunyoni buzib.
Nurga visol bo'ldim, kunga qiyomat,
Hech kimga,
Hech zog'ga parvo qilmasdan,
Seni kulib-kulib yashadim faqat.
Bir kun...
Men bir kunni kutmagan edim,
Kulgum xastalandi, qismati bitdi.
"Patlari yulgingan musicha" kabi



Kamsuqum ohlarim
falakni tutdi...
Kutayapman, axir...
Nima farqi bor,
Bugun dardni suysam,
Qalbni... Ertaga.
Ayt! Shunda tirilib kelarmi Sevgi?
Ko'zlarimni yumsam...
Bugun jo'rttaga!

Sizga juda kelar havasim,
ko'ksingizda gullayverar baxt.
Sadoqat-la qilaman ta'zim,
va tilayman mardonavor ahd!
Yoningizda go'zal olamlar,
Yastanadi chehrangiz tomon.
Nima desa, desin odamlar,
Siz quyosh deb qilaman gumon.
Nur berasiz necha yurakka,
Necha ko'zni qilib intizor.
Hayronman-da men ham falakka,
Sizni nega yaratgan Bedor!
Sizga juda kelar havasim,
Yaxshilarning ichida tanho.
Yo'llarim kesishsin-da deb,
O'zim yo'llar yasayman goho.
Nigohlarim unsiz o'ldirar,
o'ylamasman paymonasini.
Telbalarim ichidan yana
Toparmisiz mendakasini!
Sizga juda kelar havasim!

OQ KEMA

Oh osmonli oq kema,
Oq osmonli oh kema.
Mensiz ketib qolmagin,
Orzularimni bilmay.
Senda ko'nglim qolgan-ov,
Yurak yomon yongan-ov,
Shahzodamas, Ishqzoda —
Xayolimni olgan-ov!
Yelkanlaring tor chertgan,
Oshiq qo'shig'ini aytgan,
Ohlaringga hattoki,
Ollah nazar solgan-ov!
Oq kema-yu, oh kema,
Egasi yomon kema.
Mensiz ketib qolmagin,
Orzularimni bilmay!

Madina BAXSHILLOEVA,
Romitan tumanidagi
23-IDUM o'qituvchisi

Marifat

TASIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim va fan xodimlari kasaba
uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. V-4529. Tiraj 7638.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan,
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxona — (71) 233-50-55;
kotihiyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi —
(71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.



"Marifat" dan
materiallarni ko'chirib
boshish tahririyat
ruxsati bilan amalga
oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqiriz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Humoyun Quvondiqov.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxonada manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.